2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 79 (1405), 2025-yil 18-aprel, juma

www.yuz.uz  yuz.uznews  yuz_official  yuz.uz_news




# BOBUR SHAHRI – YANGI O‘ZBEKISTON G‘OYASI TAJASSUMI

**Andijonliklar haqida gap ketganida, tadbirkor, omilkor, serg‘ayrat, tanti, mard kabi ijobiy sifatlar doim qo‘shib aytiladi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki bunyodkorlik ruhi, yaratuvchanlikka intilish, kurashuvchanlik ishtiyoqi, insoniylik, mehnatkashlik qon-qonimizga singib ketgan. Birgina 2024-yilda viloyatimizda 4 mingdan ziyod yangi tadbirkor ish boshlagani, ko‘plab tadbirkorlik subyektlari faoliyati kengayib, qariyb yarim million aholi ishli bo‘lgani ham andijonliklarning ana shu g‘ayratu shijoati va, albatta, yurtimizda tadbirkorlik rivojiga keng yo‘l ochilgani, biznes vakillari har tomonlama qo‘llab-quvvatlanayotgani samarasi deb o‘ylayman.**



Maqtanishga yo‘ymang-u, bugun Andijon chindan ham shiddat bilan rivojlanayotgan eng oldi viloyatlardan. Prezidentimiz viloyatga tashrifi chog‘ida “Andijon zaminida Yangi O‘zbekiston g‘oyasi, Yangi O‘zbekiston nafasi har bir mahalla, har bir xonadonga kirib bormoqda, xalqimizni baland-baland marralarga undamoqda. Bu — islohotlarimizning biz kutgan, butun xalqimiz kutgan eng katta, eng muhim natijasi”, deya bejiz alohida ta’kidlamadi. Haqiqatan, viloyatimizdagi yangilanishlar, odamlarning ongu tafakkuri, dunyoqarashi, turmush tarzidagi o‘zgarishlar, umuman aytganda, Andijonning har qarich yeri, har bir xonadondagi muhit yangi O‘zbekiston shukuhi bilan hamohang, hamnafas.

Andijon viloyati O‘zbekiston hududining bir foizini, aholisi esa qariyb 10 foizini tashkil etadi. Ya’ni aholi juda zich yashaydi, bugunga kelib uch yarim million nafarga yetdik. Odatda aholining bu kabi zich joylashuvi resurs va imkoniyatlar chegaralanuvini yuzaga keltiradi, o‘z navbatida, ularning turmush tarzi, farovonligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bizda esa buning butunlay aksi: hamma bir-birining zakovati, tadbirkorligiyu uddaburonligidan ilhom va quvvat olib, bunyodkorlik shijoatini shahardan qishloqqa, yuraklardan yuraklarga yoyadi.

*Davomi 3-betda*

## ANDIJON – IQTISODIY SALOHIYAT, YANGI LOYIHA VA TASHABBUSLAR DARVOZASI

**Davlatimiz rahbari joriy yil 15-16-aprel kunlari Andijonda bo‘lib, viloyatdagi bunyodkorlik ishlari, yangi korxonalar faoliyati, sanoat, shaharsozlik va boshqa sohalardagi ishlar bilan tanishdi.**




Bu galgi tashrif oldingilaridan farq qiladi. Ya’ni tashrif kun tartibi tig‘iz, lekin muhim voqealarga boy bo‘ldi. Aslida, Prezidentimiz har bir tashrifida andijonliklarni eng ko‘p o‘ylantirgan masalalarga o‘ziga xos yechim bilan keladi. Bu safar ana shunday yechimlar, yangi tashabbuslar ko‘pligi, ko‘lami va ahamiyati kengligi bilan butun andijonliklarni baxtiyor qildi.

Xalqimizda “qars ikki qo‘ldan chiqadi” degan gap bor. Bu hikmatning mazmun-mohiyati shundaki, biror ishda natija bo‘lishi uchun ham sharoit, ham unga yarasha harakat bo‘lishi kerak. Xuddi Andijondagi kabi. Inchunin, mamlakatimizda barcha soha rivoji uchun yaratilayotgan imkoniyatlarga mos ravishda viloyatda katta natijalarga erishilmoqda. Prezidentimiz e’tirof etganidek, bu zaminda yangi O‘zbekiston shukuhi har bir mahalla, har bir xonadonga kirib ulgurgan. E’tiborli va e’tirofli jihati shuki, davlatimiz rahbari hududda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda qisqa muddatda katta o‘zgarishlar ro‘y bergani, bu esa odamlar hayotida o‘zining ijobiy aksini topayotganini alohida qayd etdi.

Andijon — O‘zbekistonning Sharq tomon ochilgan darvozasi. Nafaqat geografik jihatdan, balki islohotlar va yangilanishlar markazi sifatida ham muhim ahamiyatga ega hudud.

So‘nggi sakkiz yilda viloyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot ilgarigidan mutlaqo farq qiluvchi yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu o‘zgarishlar, avvalo, davlatimiz rahbarining xalqparvar siyosati, amaliy tashabbuslari tufayli yuz berdi.

Darhaqiqat, viloyatimizda oxirgi sakkiz yilda kuzatilgan rivojlanish nafaqat raqamlarda, balki har bir andijonlik hayotida aks etmoqda. Xususan, birgina o‘tgan yili viloyatda 1,5 million kvadrat metr turar joy va 850 ming kvadrat metr noturar joy qad ko‘tardi. Buning hisobiga savdo va xizmat ko‘rsatish hajmi 13 foiz, sanoat 7,5 foiz oshgan.

Bugun viloyatimizda sanoat, qishloq xo‘jaligi, tadbirkorlik, turizm va boshqa sohalar jadal rivojlanmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, yangi ish o‘rinlari ochish va hududning investitsiya jozibadorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

*Davomi 3-betda*

## QALBIDA VATANGA MUHABBATI BOR ODAM YOT G‘OYALARGA ALDANMAYDI

### ANDIJONDA MADANIYAT VA SAN’AT XODIMLARI KUNIGA BAG‘ISHLANGAN TADBIRLAR YUQORI SAVIYADA O‘TKAZILDI

Daxldorlik hissi

**Bu haftada yurtdoshlarimizning diqqat-e’tibori Andijon viloyatiga qaratildi. Shu yil 15-16-aprel kunlari davlatimiz rahbari viloyatga tashrif buyurib, hududdagi bunyodkorlik ishlari, jumladan, 19 gektar maydonda barpo etilgan “Yangi O‘zbekiston” bog‘i bilan tanishdi. Shuningdek, bu yerdagi hunarmandchilik, badiiy va amaliy san’at ko‘rgazmalarini tomosha qildi. Andijonda har yili rassomlar festivalini o‘tkazish, viloyatda turizm markazi tashkil qilish kabi tashabbuslarni ilgari surdi.**




Kuni kecha mamlakatimiz madaniyat va san’at sohasining ko‘zga ko‘ringan vakillari kasb bayramini viloyat aholisi bilan birga nishonlash uchun Andijonda jam bo‘ldi. Madaniyat va san’at xodimlari kuniga bag‘ishlangan tadbirlar Andijonda yuqori kayfiyatda o‘tkazildi. Fidokorona mehnat qilayotgan soha xodimlari e’tirof etilib, ularga “Madaniyat va san’at fidokori” ko‘krak nishoni tantanali topshirildi.

Madaniyat vazirligi ta’sis etgan ushbu mukofot sohaga kirib kelayotgan ertamiz egalari qalbida umid uchqunlarini alangalatayotgan bo‘lsa, katta avlod vakillarini ruhlantirmoqda. Bu safar madaniyat vaziri va boshqa mutasaddilar viloyatda uzoq yillar samarali faoliyat yuritgan, soha ravnaqiga munosib hissa qo‘shgan faxriylar xonadoniga borib, bayram bilan tabrikladi hamda tashakkurnoma topshirdi.





*Davomi 2-betda*

## “OCHIQ BUDJET” TIZIMI

### ODAMLAR DUNYOQARASHI, ONG–U TAFAKKURINI HAM OYDINLASHTIRMOQDA

**Yaqinda onam bilan momomning qishlog‘iga bordik. Bu yerga kelmaganimga uch yildan oshgandi. Qishloqni butunlay tanib bo‘lmay qolibdi. U yerdagi o‘zgarishlarni ko‘rib hayratda qoldim. Issiq kunlari chang, yomg‘ir yoqqanda loy bo‘lib ketadigan ko‘chalar ta’mirlanib, ravonlashibdi. Piyodalar uchun alohida yo‘lakchalar qilinib, ko‘cha chiroqlari o‘rnatilibdi. Buni ko‘rib, uch-to‘rt yoshimdagi bir voqea esimga tushdi.**

O‘shanda kuchli yomg‘irdan ko‘cha tizzamgacha loy bo‘lib ketgandi. Kovushim loyga botib qoldi, men yalangoyoq davom etdim. Qo‘limdan mahkam ushlab olgan onam yiqilib tushmasligimiz uchun sirpana-sirpana ketardi. Yomg‘ir shovqinidan “voy kovushim” deganimni ham eshitmay qoldi. Chunki onamning xayoli tezroq momomning darvozasiga yetib olishda edi. Darvoza yonida bizni quchoq ochib kutib olgan momom yuzlarimdan o‘pib, oyog‘imga qaradi va “Voy o‘lmasam, bolaginamning oyoq kiyimi qani?”, deya darrov meni ko‘tarib oldi…

Onamga shu voqeani eslatib, xandon otgancha momomning uyiga kirib bordik. Yangam “O‘h-hu, Toshkentjondan mehmonjonlar kelibdi-ku”, deya peshvoz chiqdi. Salom-alikdan so‘ng “Tog‘am uyiga qo‘shib qishloqni ham “sity”ga aylantirib yuboribdi-ku”, dedim hovliga nazar tashlab. “Ha, endi tog‘angizni bilasiz-ku, qo‘lidan hamma ish keladi, hovlini saranjomlab qo‘ydi. Endi qishloqqa kelsak, siz, nima, faqat Toshkentda o‘zgarish, yangilanishlar bo‘lyapti deb o‘ylaganmidingiz? U yoqda “Toshkent sity” bo‘lsa, bu yer “Keskak sity”da”, deya miyig‘ida kuldi. So‘ng darvozadan tashqariga ishora qilib so‘zida davom etdi: “O‘tgan yili mahalla ahli bir yoqadan bosh chiqarib ovoz yig‘dik. Harakatlarimiz besamar ketmay, “Ochiq budjet”da yutib, ko‘chalarni ta’mirlatib oldik. Bu ikkinchi yutishimiz, birinchisida maktabimizni ta’mirlatgandik. Ahillikda gap ko‘p-da, maqtash emasu, poytaxtning manaman degan mahallalaridan kam joyi yo‘q. Hali maktabimizni ko‘rmabsiz, og‘zingiz lang ochilib qoladi. O‘quvchilar uchun eng zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlangan”.

*Davomi 4-betda*

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Daxldorlik hissi





# QALBIDA VATANGA MUHABBATI BOR ODAM YOT G‘OYALARGA ALDANMAYDI

## ANDIJONDA MADANIYAT VA SAN’AT XODIMLARI KUNIGA BAG‘ISHLANGAN TADBIRLAR YUQORI SAVIYADA O‘TKAZILDI

Boshlanishi 1-betda

— Davlatimiz rahbari viloyatimizga tashrifi chog‘ida biz — madaniyat hamda san’at sohasi vakillari haqida bildirgan samimiy gaplaridan ta’sirlanib yurgan paytimda xonadonimizga madaniyat vaziri kelib, kasb bayramimiz bilan tabrikladi. O‘sha palladagi hissiyotimni so‘z bilan ifodalay olmasam kerak, — deydi Andijon tumanidagi 7-musiqaga ixtisoslashtirilgan maktab-internat o‘qituvchisi Shalolaxon Mamadaliyeva. — Madaniyat va san’at vakillariga yetarli imkoniyat yaratib berilayotgan, katta e’tibor va ishonch bildirilayotgan bugungi davrda yoshlar, shogirdlarimiz maza qilib ishlashi, xalqimizga xizmat qilishi kerak. Biz, faxriylar esa, o‘z navbatida, milliy madaniyat va san’atimizning nufuzini saqlash, bor bilimimizni yosh avlodga berish orqali ularning yetuklikka erishishi uchun to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatib borishimiz lozim.



> **Andijon markazidagi Yangi O‘zbekiston bog‘ida bo‘lib o‘tgan “Madaniyat va san’at fidokori” ko‘krak nishoni bilan taqdirlash marosimi hamda bayram konsert dasturi shahar oqshomiga yanada fayz bag‘ishladi. Tadbir avvalida madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov barchani chin yurakdan tabriklab, mehnati e’tirof etilganlarga mukofotlarni topshirdi. Konsert dasturi esa milliy san’atimizning chin namoyishiga aylandi.**

Qalbida vatanga muhabbati bor odam hech qachon yot g‘oyalarga aldanmaydi. Bugun xalqimiz Uchinchi Renessans poydevorini qurishni oldiga katta maqsad qilib qo‘ydi. Bu boradagi islohotlarda madaniyat va san’at sohasi xodimlari oldingi safda bo‘lishi kerak. Chunki davlatimiz rahbarining talabi ham shunday.

— Bugun tizimda 36 mingdan ortiq xodim faoliyat yuritadi. Barcha jabha qatori madaniyat sohasida ham raqobat tobora kuchayib bormoqda, — deydi madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov. — Inson ongi, hissiyotlari uchun kurash ketmoqda. Qadriyatlarga ta’sir o‘tkazish, o‘zgartirishga urinishlar bo‘lmoqda. Shunday murakkab bir davrda aynan madaniyat va san’at sohasi qalb, tafakkur hamda qadriyatlar himoyachisi bo‘lib katta maydonda o‘zini ko‘rsata olishi kerak. Xalqning uyg‘oqligi bevosita madaniyatga, ma’naviyatga bog‘liq. Bu borada Prezidentimiz belgilab bergan ko‘plab ustuvor reja va dolzarb vazifalar jamiyatimizda ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash, millatlararo do‘stlik va hamjihatlikni mustahkamlash, yoshlarimizni vatanparvar va fidoyi qilib tarbiyalashga qaratilgan.

Andijon markazidagi Yangi O‘zbekiston bog‘ida bo‘lib o‘tgan “Madaniyat va san’at fidokori” ko‘krak nishoni bilan taqdirlash marosimi hamda bayram konsert dasturi shahar oqshomiga yanada fayz bag‘ishladi. Tadbir avvalida madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov barchani chin yurakdan tabriklab, mehnati e’tirof etilganlarga mukofotlarni topshirdi. Konsert dasturi esa milliy san’atimizning chin namoyishiga aylandi.

Tadbirda Andijon viloyati hokimi Shuhratbek Abdurahmonov, TURKSOY Bosh kotibi Sulton Rayev ishtirok etdi.

Madaniyat va san’at azaldan boshqa sohalar rivojiga ham kuch bag‘ishlovchi, yurtni dunyoga keng tanitguvchi qudratdir. Bugun o‘zining taraqqiyot yo‘lidan borayotgan yangi O‘zbekiston nomini butun olamga yoyishda ham shu soha muhim o‘rin tutadi. Bunday sharoitda faqat va faqat yurakdan ishlash, zavqlanib yashash kerak

.

**Nodir MAHMUDOV,**
**Munojat MO‘MINOVA,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbirlari**

# MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT O‘CHOG‘INING MUHTASHAM QO‘RG‘ONI

**Joriy yil 15-16-aprel kunlari Prezidentimizning Andijonga tashrifi nafaqat viloyatimiz ahli, balki barcha yurtdoshlarimizni to‘lqinlantirib yubordi. Chunki ushbu tarixiy tashrif davomida butun respublikamizga daxldor bir qancha tashabbuslar ilgari surildi.**




Mamlakatimizda inson qadrini ulug‘lash, xalqimizning huquq va manfaatlarini ta’minlash, shu asosda odamlarni hayotdan rozi qilish yo‘lida jadal islohotlar kechmoqda. Ushbu o‘zgarishlar sabab har bir xonadonga yangi O‘zbekiston shukuhi kirib bordi.

Ayniqsa, ma’naviy qadriyatlarimizga e’tibor, kelajak vorislari uchun yaratilayotgan shart-sharoitlarni alohida qayd etish lozim. Tashrif davomida Yangi Andijon shahrini Bobur shahri deb nomlash bo‘yicha katta tashabbus ilgari surildi. Shu orqali Bobur bobomiz siymosini abadiylashtirish yo‘lidagi yana bir yirik qadam tashlandi. Quvonarlisi, yangi shaharda ulug‘ ajdodimiz va uning avlodlari bunyod qilgan tarixiy obidalarning kichiklashtirilgan nusxalaridan iborat tematik park barpo etiladigan bo‘ldi. Qolaversa, Prezidentimiz har yili Bobur shahrida rassomlar festivalini o‘tkazishni taklif qildi. Ushbu festivalda g‘olib bo‘lganlarga avtomobil berilar ekan.

Rassomlar uchun bunday festival o‘tkazilishi har bir ziyolini behad quvontirdi. Negaki, adabiyot, san’at bir butun vujudga o‘xshaydi. Ular mushtarak ravishda rivojlanadi. Adabiyot va san’atning yuqori cho‘qqiga chiqishi xalqda ijodkorlik kayfiyatini kuchaytiradi. Bu o‘z o‘rnida aniq fanlarga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Buni Ikkinchi Renessansga poydevor qo‘ygan ajdodlarimiz misolida ham yaxshi bilamiz. O‘sha vaqtda hozirgi O‘zbekiston hududida kuchli davlatchilik paydo bo‘ldi. Iqtisodiy, harbiy qudratga ega mamlakatda ilm-fan va ijod bir vaqtda rivoj topdi.

Bugun ham yangi O‘zbekistonda xuddi shunday holat kuzatilmoqda. Berilgan imkoniyatlar sabab ilm-fanda yuqori marralarni egallayotgan yoshlar safi kengaydi. Ijod maydonida ham vatanimizga munosib ijodkorlar kamol topib kelmoqda. Shu bois, biz bemalol yurtimizda Uchinchi Renessans poydevori qo‘yilmoqda deb ayta olamiz.

Davlatimiz rahbari mutasaddilarga Bobur shahrini ma’rifat va madaniyat markaziga aylantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan qaror loyihasini ishlab chiqishni topshirdi. Demak, yangi shahar Uchinchi Renessans tayanchi bo‘lib xizmat qiladi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Adirliklar bag‘rida barpo etilayotgan Bobur shahriga tashrif buyurgan har qanday kishi qurilish va bunyodkorlik ishlaridan hayratlanishi aniq. Keng, ravon yo‘llar, biri biridan ko‘rkam ko‘p qavatli uylar, bog‘lar, atrofi gullarga burkangan yo‘lakchalar, umuman, adirlik bag‘ri bo‘stonga aylanayotgani har qanday odamning havasini keltiradi. Zamonaviy me’moriy an’analar asosida bunyod bo‘layotgan Bobur shahrida ko‘p qavatli mahobatli binolar qatorida Boburning muhtasham haykali ham qad rostlaydi. Bunday o‘zgarishlar bizga yangi kuch va shijoat beradi.

Buning uchun, Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi olamga mashhur ajdodlarimiz borligini, ular O‘zbekiston farzandi ekanini hech qachon unutmasak bas.

**Shohistaxon NURMATOVA,**
**Muhammad Yusuf nomidagi**
**ijod maktabi direktori**

Mahalliy kengashlarda

# ISH HAM, TALAB HAM BIR XIL

## YONDASHUV VA MUAMMOLAR YECHIMI-CHI?

**Mahalliy kengashlar faoliyatidagi katta yangilik — hokimning kengashga raislik qilishi tizimi bekor bo‘lganidan keyin nimalar o‘zgardi?**
**Deputatlar, kengashlar to‘g‘risidagi qonunlar, xalq vakillari oldiga qo‘yilgan vazifalar, ularga berilgan imkoniyatlar ham bir xil bo‘lishidan qat’i nazar, vakolatini to‘liq amalga oshirishda har bir kengashning o‘z ish uslubi bor.**
**Hududiy, geografik, ishlab chiqarish, aholining xo‘jalik yuritishi, turmush tarzi, yana ko‘p jihatlari bilan juda o‘xshash bo‘lgan Qashqadaryo va Jizzax viloyatlari xalq deputatlari kengashlari yangicha sharoitda qanday ishlamoqda?**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2025-yilda mahalliy kengash deputatlari hamda kotibiyat xodimlarining o‘zaro tajriba almashishini tashkil etish bo‘yicha ishlab chiqilgan reja-grafigiga asosan xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati kengashi deputatlari, kotibiyat xodimlari, doimiy komissiya raislari Jizzax viloyatida bo‘ldi.

Safar avvalida qashqadaryolik deputatlar “Mehnat shuhrati” ordeni hamda “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan tadbirkor” faxriy unvoni sohibi, xalq deputatlari Jizzax viloyati kengashi deputati Sharofat Noriyevaning fermer xo‘jaligiga bordi. Mehmonlar uning tadbirkorlik harakatini yangi bosqichga ko‘tarish, xususan, bog‘dorchilik, ko‘chatchilik, chorvachilik va hududda tomorqachilikni keng targ‘ib qilish, ish o‘rinlarini yaratish ishlari hamda deputatlik faoliyati bilan qiziqdi.

Mahalliy kengashlardagi o‘zgarishlarni Sharofat Noriyeva faoliyatida ham ko‘rish mumkin. U “saylovchilar deputat oldiga emas, deputat o‘z saylovchilari huzuriga borishi shart” degan tamoyildan kelib chiqib, har oyning oxirgi haftasida o‘z saylov okrugida aholi bilan uchrashuv o‘tkazmoqda. Muloqotda murojaat va takliflarni avval o‘zi atroflicha o‘rganib, so‘ng tegishli idoralarga olib chiqmoqda. Deputat faqat shu yilning o‘tgan davrida o‘z okrugidagi odamlarni qiynab kelayotgan elektr, suv ta’minoti, obodonlashtirish, tadbirkorlik faoliyatini boshlovchilarni qo‘llab-quvvatlash kabi o‘nga yaqin muammoni hal etishda hamkorlik qilgani mehmonlarda yaxshi taassurot uyg‘otdi.

Mehmonlar Sharofat Noriyeva tashabbusi bilan tashkil qilingan “Gulchi opa tomorqa xizmati” klasteri faoliyati bilan ham tanishdi.

— Ham deputat, ham tadbirkor Sharofat Noriyevaning faoliyati havas qilsa arzigulik, — deydi xalq deputatlari Kasbi tumani kengashi deputati Sulton Hamroyev. — “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan tadbirkor” faxriy unvoni birinchi bo‘lib ushbu ayolga bejiz berilmaganiga amin bo‘ldik. Darhaqiqat, uning hududda tomorqachilikni rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini ochish, aholi daromadi va farovonligini oshirish, deputat sifatida odamlarning turli muammo va ijtimoiy masalalarini hal etishdagi ishlari tahsinga sazovor. Viloyatimizdan gulchilik, tomorqachilikka qiziqadigan xotin-qizlarni olib kelib, gulchi opa tajribasini Qashqadaryoda ham tatbiq etishga kelishib oldik.

Xalq deputatlari kengashi faoliyatining samaradorligi ko‘p jihatdan uning kotibiyati qanday ishlashiga bog‘liq. Qashqadaryoliklar viloyat kengashi kotibiyati faoliyati bilan tanishish davomida doimiy komissiyalar ishi, nazorat-tahlil tadbirlari, deputatlarning saylovchilar bilan tizimli ishlashi jarayoni bilan qiziqdi. Mehmonlarga xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlaridagi doimiy komissiyalar, partiya guruhlari va deputatlar faoliyatini to‘g‘ri hamda samarali tashkil etish, mahalliy byudjetni shakllantirish, uning ijrosi ustidan samarali deputatlik nazoratini amalga oshirish, hududlarni rivojlantirish dasturlarini shakllantirish, tasdiqlash hamda ijrosi yuzasidan nazorat-tahlil faoliyatini yuritish borasida viloyatda qilinayotgan ishlar bo‘yicha atroflicha ma’lumot berildi. Mehmonlarda doimiy komissiyalar faoliyati, sessiya majlislarini o‘tkazishga oid tajribalar yaxshi taassurot qoldirdi.

Safar davomida qashqadaryolik deputatlar Jizzax shahar kengashida ham bo‘ldi. Bu yerda qilinayotgan ishlar, erishilgan yutuqlar yuzasidan o‘zaro tajriba almashildi. Tajriba almashish doirasida mehmon deputatlar shahar kengashining qurilish, kommunal sohalar, ekologiya, sanoat va transport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasining navbatdagi majlisida ham ishtirok etdi.

Delegatsiya a’zolari viloyatning chekka tog‘li hududlari — Zomin va G‘allaorol tumanlaridagi bunyodkorlik ishlari bilan tanishtirildi. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati hamda istiqboldagi maqsadlarini amalga oshirishda xalq saylagan vakillarning deputatlik nazorati va tahlil tadbirlari haqida atroflicha ma’lumot berildi.

Ushbu hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarda viloyat, tuman deputatlarining ishtiroki yaxshi samara berayotgani, “mahalla yettiligi” bilan hamkorlikdagi ishlar e’tirof etildi.

— O‘zaro muloqotlarda turizmni ta’minlashdagi o‘xshash imkoniyatlar, kelajakdagi maqsadlar ham muhokama etildi, — deydi xalq deputatlari Shahrisabz tumani kengashi deputati Ilhom Yusupov. — Zominning go‘zal tabiati, ayniqsa, osma dor yo‘li, “Baxt ko‘prigi”, dengiz sathidan 2400 metr balandlikdagi Suffa platosi har qanday mahalliy va xorijiy sayyohni o‘ziga jalb qiladi. Davlatimiz rahbarining tegishli qaroriga asosan, tumanimizning qadimiy va go‘zal tabiatli G‘yelon qishlog‘ida turistik-rekreatsion zona hamda xalqaro umummavsumiy kurort tashkil etilmoqda. Ayni paytda ushbu qaror ijrosi bo‘yicha ulkan bunyodkorlik ishlari bajarilmoqda. Zominda turizmni rivojlantirishdagi sa’y-harakatlarni kuzatib, tumanimizda bu boradagi ishlar sifatli bajarilishi va ajratilgan mablag‘ni samarali hamda maqsadli ishlatish ustidan doimiy deputatlik nazorati o‘rnatish oldimizda turgan asosiy vazifalardan ekaniga ishonch hosil qildim.

— Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga muvofiq, hokimlarning xalq deputatlari mahalliy kengashlariga raislik qilish amaliyoti bosqichma-bosqich bekor qilinmoqda, — deydi xalq deputatlari Jizzax viloyati kengashi raisi Parda Shukurov. — Ushbu norma joriy yildan boshlab viloyatlar va Toshkent shahri kengashida amaliyotga tatbiq etildi. 2026-yildan esa tuman (shahar) kengashlarida joriy qilinadi. Ushbu siyosiy islohot orqali xalqimizning 30 yillik orzusi



ro‘yobga chiqdi. O‘tgan yili hokimlarning 33 ta vakolati kengashlarga olib berildi, yana 17 ta vakolatni o‘tkazish reja qilingan. Bundan tashqari, kengash so‘rovi va kengash tekshiruvi kabi yangi mexanizmlar orqali hududiy ijro organlari faoliyati ustidan nazorat kuchaytirilmoqda. Joriy yildan boshlab yer, mol-mulk va aylanma soliqlarni to‘liq, daromad solig‘ining esa kamida 50 foizini tuman va shaharning o‘zida qoldirish rejalashtirilgan. Bu islohotlar tuman va shaharlarning o‘z hududidagi muammolarni mustaqil hal etish barobarida mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanib, aholini qiynayotgan masalalar yechimi bo‘yicha asosli tashabbuslarni ilgari surishni ham taqozo etadi.

Yangicha tashkil etilgan kengash faoliyatining samaradorligini oshirishda deputatlarning o‘zaro tajriba almashuvi yaxshi natija berishi aniq. Qashqadaryolik deputatlarning viloyatimizga kelgani har ikkala tomon uchun juda foydali bo‘ldi. Biz hamkasblarimizga faqat yutuqlarimizni ko‘rsatish bilan cheklanmay, hali bartaraf etilmagan kamchiliklar yuzasidan ham fikr almashdik. Bir qancha sohada hamkorlik qilish yuzasidan o‘zaro kelishib oldik. Muloqotlarda xalq deputatlari viloyat kengashlari endi ijro hokimiyatining qator vakolatiga ega bo‘lgan holda xalq manfaatlarini himoya qilish, aholi turmush darajasini oshirish, odamlarni qiynab kelayotgan muammolar va hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etishda faol ishtirok etishi, ular endi tom ma’noda xalq vakillari bo‘lishi lozimligi ta’kidlandi.

Mahalliy kengash raislari va deputatlar faoliyatining ilk sarhisobi, jumladan, aholining turmush sharoitini yaxshilash, ijtimoiy muammolarni hal etish borasidagi harakatlari, ishni to‘g‘ri tashkil etish maqsadida yuqoridagi kabi o‘zaro tajriba almashishlar, hech shubhasiz, yangi tizimning afzalliklaridan dalolat beradi. O‘zaro tajriba almashish deputatlar va mahalliy kengash raislari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi, jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni chuqurroq tushunish va ularni samarali hal qilishga imkoniyat yaratadi. Bu, o‘z navbatida, mahalliy hokimiyat organlarining faolligini oshirish, aholiga yaqin bo‘lish uchun muhim ahamiyatga ega.

**Farhod NE’MATOV,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**




> **Andijon Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud topgan diyor ekani bilan ham mashhur. Shu munosabat bilan Prezidentimiz Yangi Andijon shaharchasiga Bobur shahri deb nom berish tashabbusini ilgari surdi. Bu barchamizning ko‘nglimizdagi, yuragimiz tubidagi ish bo‘ldi. Ushbu tashabbusni faxr-iftixor, zo‘r xursandlik bilan qabul qildik.**

**Boshlanishi 1-betda**

# BOBUR SHAHRI – YANGI O‘ZBEKISTON G‘OYASI TAJASSUMI



**O‘ktam OXUNOV,
“Nuroniy” jamg‘armasi
Andijon viloyati
bo‘limi raisi, senator**

Aslida, Andijon mamlakatimizda hududi jihatidan eng kichik, aholisi esa eng zich yashaydigan viloyat ekani yangilik emas. Bu yerda azaldan nisbatan aholi zich joylashgan. Ehtimolki, ana shu jihat qadimdan ajdodlarimizda izlanuvchanlik, topqirlik, bor imkoniyatdan yuqori darajada foydalanish ko‘nikmasini shakllantirgan.

Ha, andijonliklar katta el. 3,5 million aholining yutuqlari bilan birga talab va ehtiyojlari, katta-katta rejalari ham shunga yarasha. Davlatimiz rahbari viloyatni kompleks rivojlantirish bo‘yicha ustuvor vazifalar yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilishda shu kabi jihatlarni hisobga olib, Andijonga qo‘shimcha 1 trillion so‘m yo‘naltirilishini aytdi. Ishonchim komilki, viloyatimizga ajratilayotgan mablag‘ hisobiga amalga oshiriladigan loyihalar qiymatidan bir necha yuz, minglab chandon ortig‘i bilan samara keltiradi.

Umuman olganda, viloyat ahlining hayoti yanada yaxshi, to‘kis bo‘lishi, hudud ravnaq topib, barqaror taraqqiyotga erishishi uchun nima kerak bo‘lsa, davlatimiz tomonidan hammasi muhayyo qilinmoqda. Bu balandparvoz gaplar emas. Masalan, zamon talabiga aylangan qayta tiklanuvchi energetika tizimini olaylik. “Yashil” energiya manbalari bugungi kunda global iqlim o‘zgarishi va ekologik muammolarga qarshi kurashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, “yashil” rivojlanish ekologiya muammolariga yechim topishda muhim vosita hisoblanadi.

“Yashil” energetika qazilma yoqilg‘i sarfisiz, atmosferaga zararli gazlar chiqarmaydigan va natijada atrof-muhitga ziyon yetkazmagan holda energiya ta’minotini amalga oshiradigan tizimdir. Bunda iste’mol talabi quyosh, shamol, suv, biomassa, vodorod energetikasi kabi muqobil energiya manbalari evaziga qoplanadi.

Ochig‘i, ilgari “yaqin orada O‘zbekistonda “yashil” energetika quvvatlari taraqqiyotni harakatga keltiruvchi asosiy manbaga aylanadi”, deyishsa ishonmas edik. Mana, so‘nggi sakkiz yilda islohotlar tufayli bugun “yashil” taraqqiyot og‘ushida yashayapmiz.

Bu, albatta, keyingi yillarda sohaga katta e’tibor qaratilib, huquqiy zamin yaratilgani, “yashil” energiya manbalarini barpo qilish bo‘yicha katta dasturlar boshlangani, investorlar uchun jozibador muhit tashkil etilib, amaliy ishlar avj olganining samarasidir.

Shu nuqtayi nazardan, Prezidentimizning Andijonga tashrifi odatiy emas, balki barqaror rivojlanish, toza muhit va ekologik yondashuvga jiddiy e’tiborning boshlanishi bo‘lgani bilan ham nihoyatda tarixiy bo‘ldi, desak adashmaymiz.




Zero, tashrif davomida taqdim etilgan loyihalar viloyat sanoatida “yashil” yondashuv ustuvor yo‘nalishga aylanayotganini ko‘rsatyapti. Masalan, 2025-yilgacha 65 megavatt quvvatga ega qayta tiklanadigan energiya manbalari ishga tushirilishi rejalashtirilmoqda. Bu orqali energiya iste’molidagi umumiy yuklamaning asta-sekin muqobil energiya manbalari hisobiga normallashib borishiga erishiladi.

Sirasini aytganda, bugun faqat “yashil” energetika bilan farovon hayotimizni ta’minlashga erishish mumkin. Buning uchun bizda barcha imkoniyatlar, sharoit va huquqiy asoslar bor. Faqat boshlagan yo‘limizdan aslo ortga qaytmaslik, buyuk maqsadlarimiz sari hech ikkilanmay, faqat va faqat olg‘a yurish kerak.

Xayrli maqsadlarga yo‘g‘rilgan yangi va yaxshi voqeliklardan yana biri shuki, keyingi 4-5 yilda har bir qarichi tilloga teng viloyatda o‘n minglab odamlar boshpanali bo‘ldi.

Bungacha yig‘ilib qolgan muammolarning aksari uy-joy bilan bog‘liq edi. O‘zining boshpanasi, vatan ichra kichkinagina vatani bo‘lishni orzu qilgan odamlar qachon bizning ham ko‘ksimizga shamol tegarkin deb uzoq kutgani ham bor gap. Prezidentimizning e’tibori va tashabbusi ana shu umidbaxsh epkinlarni andijonliklarning qalbiga qadar yetkazdi.

Mamlakatimiz tarixida ilk bor, yaralgandan beri qaqrab yotgan adirliklarda ko‘p qavatli uylar, aniqrog‘i, butun boshli shahar bunyod etildi. Qurilish sakkiz bosqichda rejalashtirilgan bo‘lib, hozir ikki mingga yaqin xonadonli 63 ta uy foydalanishga topshirilgan. Demak, o‘rta hisobda 6-7 ming yurtdoshimiz yangi uy-joyga ega bo‘lgan. Shuncha odamning qalbidagi xavotir o‘rnini shukronalik, ertangi kunga ishonch, so‘nmas g‘ayrat va shijoat egallagan.

Andijon Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud topgan diyor ekani bilan ham mashhur. Shu munosabat bilan Prezidentimiz Yangi Andijon shaharchasiga Bobur shahri deb nom berish tashabbusini ilgari surdi. Bu barchamizning ko‘nglimizdagi, yuragimiz tubidagi ish bo‘ldi. Ushbu tashabbusni faxr-iftixor, zo‘r xursandlik bilan qabul qildik.

Prezidentimiz qayd etganidek, bu Bobur Mirzoning dilida qolgan armonlarini ro‘yobga chiqarish yo‘lida yana bir tarixiy voqeadir.

Yangi shaharda 1680 o‘rinli maktab, 420 o‘rinli bolalar bog‘chasi, 250 qatnovga mo‘ljallangan poliklinika qurilgani ham odamlarga tom ma’nodagi g‘amxo‘rlik, islohotlarning tub mohiyati — “Inson qadri uchun” g‘oyasining hayotiy ifodasidir.

Bundan tashqari, yangi shaharda yengil sanoat korxonasi, ipoteka markazi ham tashkil etilganki, bularning barchasi aholiga qulaylik yaratadi. Bu yerdagi qurilishlar yakuniga yetgach, 500 ming kishi istiqomat qiladi.

Ushbu xayrli ishlarga tamal toshi bundan sal avval qo‘yilgan edi. Quvonarlisi, qisqa muddatda asrga tatigulik ishlar amalga oshirildi. Rostini aytish kerak, bu loyihalar ro‘yobga chiqishiga oddiy odamlarni qo‘ya turing, quruvchilar ham shubha bilan qaragandi. Qat’iyat va intilish bor joyda natija bo‘lishi yana bir bor o‘z isbotini topdi.

Bobur shahri — yangi taraqqiyot maskani. Men bekorga bu iborani ishlatmadim. Zero, shaharning yaratilayotgan yangi tarixi bevosita davlatimiz rahbari ilgari surgan g‘oyalar, tashabbus va loyihalarning hayotga izchil tatbiq etilishi bilan chambarchas bog‘liq.

Viloyatimizga qilingan yuksak darajadagi har bir tashrif hamda taqdimotlar yangi shahar mazmuni va qiyofasi uchun hal qiluvchi chizgi vazifasini bajardi, desak yanglishmaymiz.

Eng asosiysi, bu yerda barcha shart-sharoitlar yaratildi. Davlatimiz rahbari hudud bo‘ylab yurib, yangi majmualarni ko‘zdan kechirdi. Bugun tayyor xonadonlarning aksariga oilalar ko‘chib kelib yashamoqda. Bunyodkorlik ishlari jadal davom ettirilib, bu yil mingdan ziyod xonadonli yana 40 ta ko‘p qavatli uy barpo etiladi. Inshootlar yo‘l, elektr energiyasi, tabiiy gaz, suv, issiqlik kabi zarur tarmoqlar bilan ta’minlangan.

Umumiy qiymati 33 milliard so‘mga teng loyiha doirasida hozir sig‘imi to‘rt ming metr kub bo‘lgan suv saqlash va uzatish inshooti ishga tushirildi. Shuningdek, hududda 19 gektar maydonda “Yangi O‘zbekiston” bog‘i tashkil etildi. Muhimi, yangi Bobur shahri ekologik hududga aylanmoqda.

Bir so‘z bilan aytganda, ushbu manzil nafaqat uy-joylar, zamonaviy shaharsozlik me’yorlari, eng asosiysi, inson qadri yuqori maqsad qilib olingan siyosat ifodasiga aylandi. Albatta, bunday o‘zgarishlardan ko‘zlangan maqsad jadal sur’atlarda rivojlanib borayotgan Andijon viloyatida turmush darajasini yanada yaxshilash, yangicha texnologik yondashuvlarga asoslangan shaharsozlik modelini shakllantirishdan iborat.

Mana shularni ko‘rib, atrofimda, butun yangi O‘zbekistonda kechayotgan tarixiy yangilanishlar mohiyatini idrok eta turib, ba’zi o‘tmish xotiralar yodga keladi. Balki siz ham eslarsiz: chamasi bundan 30 yillar oldin yirik geostrateglardan biri o‘zining “Buyuk shaxmat taxtasi” kitobida Farg‘ona vodiysi geosiyosiy keskinlik o‘chog‘iga aylanishini bashorat qilgandi. Hattoki ayrim ekspertlar har dam portlashi mumkin bo‘lgan “porox bochkasi”ga o‘xshatgan edi.

To‘g‘ri, qaysidir g‘alamis kuchlar ta’sirida o‘sha kezlar vodiyda mash’um voqealar bo‘ldi. Lekin tiliyu dili, qilayotgan amali yaxshilik bo‘lgan har bir vodiylik xonadonida bugun tinchlik-xotirjamlik. Prezidentimizning uzoqni ko‘ra biladigan rahbarligi, tizimli va chuqur o‘ylangan islohotlari tufayli Farg‘ona vodiysi, ayniqsa, uning yuragi bo‘lmish Andijon butunlay o‘zgardi.

Bugungi kunda viloyatimiz, yuqorida aytib o‘tganimizdek, iqtisodiy o‘sish, tadbirkorlik tashabbusi, innovatsiya, intellektual taraqqiyot va madaniy tiklanishning qudratli markaziga aylangan. Bu yerda odamlar orzu qilyapti va o‘z maqsadlariga erishyapti. O‘qiyman, izlanaman, daromad topaman va boshqalarga ham daromad manbai yarataman, deganlarga yo‘l ochiq, barcha imkoniyatlar muhayyo.

Demoqchimanki, bugun eski bashoratlarni unutib, imkoniyatlardan foydalanadigan, xohish-istaklarimiz, orzularimizni ro‘yobga chiqaradigan fursat. Hayotimiz mazmuni boyiydigan, ham oila, ham vatan oldidagi burchimiz ado etiladigan tarixiy on! Fursatni qo‘ldan bermaylik, aziz zamondosh. Zero, hayotimiz, o‘tib borayotgan umrimiz mohiyati insoniylik, boshqalarga yaxshilik qilish, bunyodkorlik, bir so‘z bilan aytganda, yurtimizda kechayotgan islohotlarga hamohangdir.

---

Munosabat

**Boshlanishi 1-betda**

# ANDIJON – IQTISODIY SALOHIYAT, YANGI LOYIHA VA TASHABBUSLAR DARVOZASI

2024-yilda viloyatda investitsiya loyihalari doirasida 380 ta loyiha amalga oshirildi. Bunda to‘qimachilik, sanoat, qurilish va qishloq xo‘jaligi sohalari salmoqli o‘rin egalladi. Mazkur loyihalarni ishga tushirish hisobiga 32 mingdan ziyod yangi ish o‘rni ochildi. Joriy yilning birinchi choragida esa investitsiya loyihalari samarasi hamda tijorat banklari ishtirokida 77 ming fuqaro ish bilan ta’minlandi.

Andijonda iqtisodiy salohiyat, yangi loyiha va tashabbuslar ko‘p. Buloqboshi tumanida viloyatni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish chora-tadbirlari muhokamasi bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilishda davlatimiz rahbari kichik va o‘rta tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, investitsiya va eksportni ko‘paytirish, qurilish, ijtimoiy sohalarni rivojlantirish borasidagi muhim vazifalarga to‘xtaldi. Avvalo, 2025-yilda viloyatda kamida 6 foiz iqtisodiy o‘sishni ta’minlab, yalpi hududiy mahsulotni 105 trillion so‘mdan oshirish, 305 ming kishini ish bilan band qilib, 150 ming odamni kambag‘allikdan chiqarish imkoniyati borligi qayd etildi.

Ta’kidlanganidek, 13 ming gektar adirga suv chiqarib, bemalol ekin ekish mumkin. Lekin u yerlarga suv chiqarishda nasos ishlatish uchun elektr narxi dehqonlarga og‘irlik qiladi. Shu bois, quyosh paneli o‘rnatish uchun moliyaviy imtiyozlar qo‘llanadi. Qo‘rg‘ontepada 300 gektar adirlikda sanoat usulida intensiv bog‘ va uzumzor barpo etilib, tadbirkorlarga tayyor holda taklif qilinadi.

Qolaversa, boshqa hududlardagi samarasiz issiqxonalar Andijonga ko‘chirilib, aholiga



**Shukurjon MAMATQULOV,
O‘zbekiston Qahramoni**

lizingga beriladi. Mahallalarga arzon urug‘ va mineral o‘g‘it yetkaziladi.

Gidroelektr stansiyalar elektr energiyasi barqarorligini ta’minlashda eng samarali manba. Ulardan olinadigan energiya tannarxi ham nisbatan ancha arzon. Dastlabki o‘rganishlarga ko‘ra, yurtimizdagi gidroenergetika salohiyati 8000 megavattni tashkil etadi. Lekin hozir buning 2200 megavattidan foydalanilmoqda, xolos.

Jumladan, viloyatimizda suv oqimi yuqori bo‘lgan ariq va kanallarda 75 megavatt quvvatga ega kichik hamda mikro GESlar qurish imkoniyati mavjud. Bu jarayonda ishtirok etadigan tadbirkorlarga 3 yil imtiyozli davr bilan 7 yilga 12 foiz stavkada kredit berilishi belgilandi. Mana shuning o‘ziyoq bunyodkorlik ishlarini yanada jonlantirishga turtki beradi. Chunki elektr energiyasi ishlab chiqarishdan boshlab aholi farovonligini ta’minlashgacha bo‘lgan barcha soha va bo‘g‘inda juda zarur.

Bu yil viloyatda 9700 xonadonli 245 ta ko‘p qavatli uy quriladi. Bu sohada 10 ming kishining bandligi ta’minlanadi, 1000 kilometrdan ziyod yo‘l va ko‘priklar ta’mirlanadi. Qisqasi, joriy yilda 5 milliard 700 million dollarlik 166 ta investitsiya loyihasi amalga oshiriladi. Bu orqali 31 mingta ish o‘rni ochiladi. 31 turdagi yangi mahsulot ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilib, 1,5 milliard dollarlik eksport imkoniyati yaratiladi. Korxonalarni barqaror energiya bilan ta’minlash uchun 65 megavattli yangi quvvatlar barpo etiladi.



Bugungi taraqqiyotni to‘g‘ri baholash uchun, avvalo, kechagi kunga nazar tashlash zarur. Viloyatdagi iqtisodiy-ijtimoiy, infratuzilmaviy rivojlanish jarayoni uzoq yillar deyarli to‘xtab qolgandi. Rasmiy ma’lumotlar viloyatda sanoat o‘sib borayotganini ko‘rsatsa-da, amalda barmoq bilan sanarli ishlab chiqarish korxonasi bor edi. Ko‘p hollarda Asaka avtomobil zavodi viloyat sanoatining yagona namunasi sifatida tilga olinardi.

O‘zbekiston hududining atigi bir foizini tashkil etadigan viloyatimiz bugun aholi manfaatlariga mos ravishda rivojlanib, katta iqtisodiy salohiyatga ega bo‘lib bormoqda. Bugun Andijon viloyatida 11 mingdan ziyod sanoat korxonasi bor. Ularning mamlakat sanoatidagi ulushi 10 foizdan yuqori. Xususan, hududda 47 ta sanoat zonasi tashkil etilgan. Ularda 2,3 trillion so‘mlik mingta loyiha amalga oshirilishi hisobiga 18 ming kishi ish bilan ta’minlangan. Mazkur zonalarda 2024-yilda 1 trillion so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, qariyb 31 million dollarlik tovar eksport qilingan. Hozir qiymati 1 milliard dollarlik 288 ta investitsiya loyihasi amalga oshirish jarayonida.

2016-yilgacha viloyatdagi eng og‘riqli masalalardan biri uy-joy masalasi edi. Ko‘plab oilalar pana-pastqam, uzoq yillar ta’mirlanmagan, sanitariya talablariga mutlaqo javob bermaydigan uylarda yashardi. Qisqacha aytganda, boshpanali bo‘lish umidi so‘nib borayotgan edi. Eng og‘riqlisi, ushbu muammolar yechimi borasida davlat darajasida jiddiy siyosiy iroda sezilmadi. Holbuki, Andijon mamlakatimizda aholi eng zich joylashgan hudud. O‘zbekistonning 10 foiz aholisi 1 foiz hududda yashaydi. Shu bois, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yangi shahar qurilishi boshlangan edi. Ushbu shahar Andijon tumanidagi adirlikda, qishloq xo‘jaligida foydalanilmagan 4 ming gektar maydonda barpo etilmoqda. Bu yilgisini qo‘shib hisoblaganda, yangi shaharda o‘rtacha 3 mingta oila vatanli bo‘ladi. Mana shuning o‘ziyoq yangi shahar qurilishining ahamiyati nechog‘liq yuqori ekanidan dalolat beradi.

Shu kunlarda “WBM Romitex” klasterining Andijon shahrida qurilgan yangi “WBM Fabrics” korxonasi ish boshladi. Umumiy qiymati 50 million dollarlik investitsiya loyihasi doirasida zamonaviy sanoat inshooti qurilib, Italiya va Germaniyadan yuqori texnologik uskunalar keltirib o‘rnatildi. Eng muhimi, loyiha doirasida 600 ta doimiy ish o‘rni ochildi.

Shu bilan birga, 19 gektar maydonda “Yangi O‘zbekiston” bog‘i barpo etilib, o‘n ming tupdan ortiq manzarali daraxt ko‘chati, buta va gullar ekildi.

Prezidentimizning “Yangi O‘zbekiston” bog‘ida bo‘lib o‘tgan xalq saylida so‘zga chiqib, ushbu shaharchaga Bobur shahri, deb nom berishni taklif qilgani meni benihoya quvontirdi.

“Faxr bilan ayta olamizki, Andijon butun mamlakatimiz, Markaziy Osiyo mintaqasining zamonaviy, yirik shaharlaridan biri, vodiy gavharidir. Bu ko‘hna zamindan ko‘plab olim va mutafakkirlar, mashhur shoir va adiblar, davlat va jamoat arboblari, madaniyat va san’at namoyandalari yetishib chiqqan.

Andijon — buyuk mutafakkir, bunyodkor shoh Zahiriddin Muhammad Bobur bobomiz tavallud topgan tabarruk diyor ekani barchamizga g‘urur-iftixor bag‘ishlaydi”, dedi davlatimiz rahbari.

Bugun Prezidentimizning tashabbuslari hayotga tatbiq etilishi natijasida hududda sanoat o‘sishi, infratuzilma va ijtimoiy rivojlanishning yangi bosqichi ta’minlanyapti. Bu galgi tashrif ham odamlar hayotiga yangiliklar olib kiradigan yangi g‘oya va maqsadlar, harakatlarga zamin yaratishi bilan alohida ahamiyatga ega.

Tahlil

OpenBudget
O‘zbekiston Respublikasi
"Ochiq Budjet" Portali



# “OCHIQ BUDJET” TIZIMI

## ODAMLAR DUNYOQARASHI, ONG–U TAFAKKURINI HAM OYDINLASHTIRMOQDA

> **“Ochiq budjet” loyihasi yanada takomillashib, qamrovi kengayib bormoqda. Odamlar e’tibori oshgan sari davlat ajratayotgan mablag‘ ham yil sayin ko‘payib boryapti. Misol uchun, eng ko‘p takliflar ichki yo‘llarni tuzatish bo‘yicha tushgani bois, “Mening yo‘lim” dasturi alohida ovozga qo‘yiladigan bo‘ldi.**

Boshlanishi 1-betda

Hol-ahvol so‘rashar ekanmiz, xayolim hali ham “Ochiq budjet” loyihasida edi. Qulog‘im ostida “Bizga ovoz bering”, deya ovoz yig‘ib yuradigan mahalla faollari yoki “Bitta ovoz ... so‘m, mahallamizga ovoz berib keting”, deya jamoat joylarida ovoz yig‘ib yuradigan yoshlar xayolimdan o‘tdi. Ular nima uchun bunchalik jon kuydirishlarini anglaganday bo‘ldim.

“Yanga, sizlar ham pul berib ovoz yig‘dilaringizmi”, deya so‘radim.

“Yo‘q, biz pul yig‘madik. Ovoz berish boshlangan kuni mahalla raisi hammamizni yig‘ib, bu loyiha nima ekanini, g‘olib bo‘lsak, hayotimiz o‘zgarishini tushuntirdi. Mahalla ahli o‘sha yerning o‘zidayoq ovoz berishni boshladi. Keyin esa barcha qo‘lidan kelgancha ovoz yig‘ishga harakat qildi. Tadbirkorlarimiz ham faol-da, tashabbusni o‘z qo‘liga oldi. Mahallamizdagi yo‘l yoqasida joylashgan oshxonalarimiz ovoz bergan xo‘randalarga choy, nonni bepul qildi. Novvoyxonalar esa bitta ovoz uchun ikkita non tekin deb peshtaxtasiga yozib qo‘yishdi. Mahalla “Damas”lari esa ovoz bergan odamga tekinga xizmat ko‘rsatishdi. Qolganlar ham qarab o‘tirgani yo‘q, xullas, hammamiz birlashib ovoz yig‘dik”, dedi yangam.

Ularning ahilligiga havasim keldi. Bunday hamjihat qishloqda janjal, kelishmovchiliklar ham bo‘lmasa kerak. Yangamning so‘zlarini eshitib, “Ochiq budjet” loyihasi faqat qishloq va mahallalarimizni obod qilmayapti ekan. Avvalo, insonlarning ongi, dunyoqarashi o‘zgarishiga, odamlarimiz ko‘nglida fidoyilik, ahillik tuyg‘ulari isloh qilinishiga xizmat qilayotgan ekan”, degan fikrga keldim.

* * *

Bu jarayonning muvaffaqiyati sababi uning xalqaro tajribada turli ko‘rinishlarda mavjud ekani, tarix sinovidan o‘tganidir. Dunyo amaliyotida partisipator budjet deb nomlanuvchi bu mexanizm to‘g‘ridan to‘g‘ri nusxalanmagan. Mutaxassislar tomonidan batafsil o‘rganilib, o‘zimizga moslangan shakldagi modeli yaratilib, hayotga tatbiq etilgan. U mamlakatda korrupsiya illatiga qarshi kurashish, aholi va davlat o‘rtasida o‘zaro ishonch va muloqotni kuchaytirishda qo‘l keladigan tizim sifatida e’tirof etiladi.

1989-yil ilk bor Braziliyada qo‘llangan loyiha bugungi kunda Yevropa, Shimoliy, Markaziy, Janubiy Amerika va Kanada, Osiyo, Afrika, Okeaniya mamlakatlari orasida keng tarqalgan. “Participatory Budgeting World ATLAS” 2019-yilda butun dunyo bo‘ylab 11 mingdan ortiq partisipator byudjet amaliyoti mavjudligini aytadi. Uning bu darajada ommalashib ketishi davlat va jamiyat uchun ham birdek foydali ekanidadir.

Ushbu amaliyotning o‘zbekcha modeli — “Ochiq budjet”ning eng katta ustunligi to‘g‘ridan to‘g‘ri xalq fikri asosiga qurilganidir. Loyihaga ko‘ra qurilishi yoki ta’mirlanishi kerak bo‘lgan joyni ham aholining o‘zi belgilaydi hamda ularning ovoz berishi orqali, birinchi navbatda, yaxshilanishi kerak bo‘lgan hududlar ajratib olinadi. Albatta, tizimning shaffof, qulay va sodda tarzda ishlashi ham uning xalqimiz orasida yil sayin ommalashib borishiga zamin yaratmoqda.

O‘zbekiston fuqarolarini byudjetni shakllantirish va uni sarf etish amaliyotiga jalb etish mexanizmlari 2019-yildan hayotga tatbiq etila boshlandi. Avval budjet sarfini belgilash jarayonida aholi vakillari tashabbusi va fikrlari bilan ishtirok etishni boshladi. Aynan “Ochiq budjet” loyihasi esa Prezidentimizning 2021-yil 13-apreldagi “Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori asosida tashkil etildi. Unga ko‘ra, “Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasi tuzildi va uning moliyaviy manbalari sifatida tuman (shahar) byudjetidan 5 foiz, qo‘shimcha manbalarning kamida 30 foizi etib belgilandi. Keyinchalik viloyatlar qo‘shimcha mablag‘larining bir qismi ham shu tizim bo‘yicha sarflanadigan bo‘ldi. 2021-yil loyiha sinov tariqasida har bir hududdan bittadan tumanda amalga oshirildi. Tajriba davomida 41 mingdan ortiq taklifga fuqarolar tomonidan

1 milliondan ortiq ovoz berildi. Natijada 1600 ta taklif g‘olib bo‘lib, ular bo‘yicha qurish, ta’mirlash ishlarini bajarish uchun 407 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ sarflandi.

Ta’mirlanishi kerak bo‘lgan manzilni taklif etish va ovoz berish jarayonlari uchun “Ochiq budjet” axborot portali tashkil etildi. Barcha amallar onlayn tarzda, inson omilisiz amalga oshirilishi esa odamlarning ushbu mexanizmga ishonchini yanada kuchaytirdi. 2022-yildan buyon bu amaliyot butun respublika miqyosida amalga oshirilmoqda. 2022-yilda 131 ming 265 ta taklifga jami 14 million 511 ming 857 ta ovoz berildi. Takliflardan 4136 tasi g‘olib topilib, ularni amalga oshirish uchun 2537 milliard so‘m ajratildi.

Ajratilgan mablag‘ samarali ishlatilishi, g‘olib taklif asosida sifatli ish bajarilishini mahalliy aholining o‘zi nazorat qilmoqda. O‘tgan yillarda bu bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlarda bir qancha videolar, fikr-mulohazalar tarqaldi.



Bir so‘z bilan aytganda, xalqimiz eski tuzum davrida ongu shuuriga o‘rnashib qolgan “barchasi davlatniki” degan eskicha qarashdan voz kechyapti. Uyi oldidagi ko‘cha, mahallasidagi maktab, bog‘cha — hammasi meniki, farzandlarimniki, degan qarash asta-sekin shakllanib boryapti. Sobiq tuzum davrida hammasi davlat mulki hisoblanib, unga zarar bergan qattiq jazolanardi. Keyinchalik esa barchasi xalq mulki ekani ta’kidlandi, jazolar yengillashtirildi, ammo insonlar ongiga singib qolgan “davlatniki” degan qarash tag-tugi bilan supurib tashlanmadi. Oddiy misol. Bolaligimda qishlog‘imizda maktab ko‘mirini o‘marib sotish, yo‘l bo‘yidagi tut daraxtini kesib, uyga olib ketish ayb emas, oddiy kundalik hayotga aylangan edi. Ammo o‘sha insonlarning farzandlari issiq uylaridan chiqib borib, sovuq maktabda kun bo‘yi tahsil olardi. Bugun esa bularning bari xalq mulki ekanini yurtdoshlarimiz teranroq anglab bormoqda. Yo‘l bo‘ylariga o‘zlari daraxt ekyapti. “Ochiq budjet”ga taklif kiritib, farzandlari yaxshi tarbiya olishi uchun maktab ta’miriga ovoz yig‘ish bilan mashg‘ul. Ya’ni “Ochiq budjet” kabi qator yangicha mexanizm va loyihalar xalqimiz dunyoqarashini o‘zgartirib, o‘zi emas, jamiyat rivoji uchun harakat qilishiga zamin hozirlayapti. Yangi O‘zbekiston barpo etilishida dunyoqarashi butkul o‘zgargan xalqimiz vakillari ham davlatimiz qavatida esh bo‘lib hissasini qo‘shib bormoqda. Chunki ular bugungi tashabbusi, harakati farzandlarining kelajagini belgilashini his qilib turibdi.

“Ochiq budjet” loyihasi yanada takomillashib, qamrovi kengayib bormoqda. Odamlar e’tibori oshgan sari davlat ajratayotgan mablag‘ ham yil sayin ko‘payib boryapti. Misol uchun, eng ko‘p takliflar ichki yo‘llarni tuzatish bo‘yicha tushgani bois, “Mening yo‘lim” dasturi alohida ovozga qo‘yiladigan bo‘ldi.

Shuningdek, bugun umumxalq harakatiga aylangan atrof-muhitni asrash, tabiatni, yashillikni tiklash, hududlarda “yashil belbog‘” yaratish orqali global ekologik muammolarga qarshi kurashish ishlari ham shu mexanizmning yana bir maqsadiga aylandi. Bu yo‘nalishdagi takliflarni bir nuqtaga jamlagan “Mening bog‘im” loyihasi ham ovozga qo‘yila boshlandi.

Ayni paytda “Tashabbusli budjet”, “Mening yo‘lim”, “Mening bog‘cham”, “Mening bog‘im” kabilar uchun takliflar qabul qilinib, ovozlar yig‘ilmoqda. Birgina joriy yil “Tashabbusli budjet” loyihasi birinchi mavsumining o‘zidayoq 10 million 450 mingta ovoz yig‘ilib, 2369 ta taklif g‘olib topildi, ularni amalga oshirish uchun 3,2 trillion so‘m ajratildi.

Bir so‘z bilan aytganda, bu tizim orqali har yili keng ko‘lamli ishlar bajarilmoqda. G‘olib bo‘lgan takliflar asosida qanchadan qancha yo‘l, bog‘cha, maktab, tibbiyot muassasalari ta’mirlanib, xalqimizga yanada sifatli xizmat ko‘rsatyapti. Millionlab ovozning har birida odamlarimiz fikri, o‘y-xayoli, niyati aks etadi. Bunday bunyodkorliklar esa o‘zbekistonliklarning hayotdan rozi bo‘lib, farovon yashashiga yanada keng yo‘l ochadi.

Ushbu ijtimoiy-iqtisodiy jarayon odamlarimiz hayotiga nafaqat moddiy jihatdan o‘z ta’sirini ko‘rsatyapti, balki dunyoqarashi, ongu tafakkuri yuksalishiga ham hissa qo‘shmoqda. Qadr ko‘rgan xalqimiz o‘zini qadrlashni yil sayin o‘rganib bormoqda. Bir paytlar shou biznes vakillari va ularning qo‘shiqlariga yoki mahalla raisi, deputatlikka nomzodlarga ortiqcha bosh qotirmay ovoz berayotgan odamlar bugun o‘z ovozi kuchining ahamiyatini his qila boshladi. Bu inson mening ovozimga munosibmi, degan savolni avvalo o‘zidan, keyin esa ovoz so‘rayotgan odamdan so‘raydi.

Keyingi oyda yirik ijtimoiy-siyosiy jarayon — mahalla raislari saylovi bo‘lib o‘tadi. Bu jarayon ilgarigilaridan farqli bo‘ladi. Mahalla ahli nomzodlardan “Tashabbusli budjet”da faollik ko‘rsatishi, kam ta’minlangan, ishsiz fuqarolarga qanday yordam berishi, hududga yangi O‘zbekiston nafasini olib kira olishi haqidagi savollarga javob berishi shart bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu tizim shiddatli, tahlikali bir zamonda dunyo hamjamiyatida o‘z o‘rni va so‘ziga ega bo‘lib borayotgan yangi O‘zbekistonga munosib odamlar shakllanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

**Sanjar ESHMURODOV,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

---

Bugunning gapi

**Bugungi O‘zbekistonda davlat siyosati darajasidagi eng muhim masala tadbirkorlikni rivojlantirish, davlat rahbariga eng yaqin soha vakillari tadbirkorlardir. Prezidentimiz qayerga bormasin, albatta, tadbirkorlarga yaratilgan sharoitlar bilan tanishadi, taklif va tashabbuslariga quloq tutadi. Hech bir yig‘ilish yo‘qki, tadbirkorlar masalalari ko‘tarilmaydigan.**

# “CHEMPION” TADBIRKOR BO‘LISHNING

## QANDAY TALABLARI BOR?

Joriy yilda yurtimizda kichik va o‘rta biznesning yalpi mahsulotdagi ulushi 55 foizga, aholi bandligini ta’minlashda 75 foizga yetkaziladi. Kamida 600 ta kichik va o‘rta biznes subyekti yiriklashishiga ko‘maklashish orqali ular “chempion” tadbirkorlarga aylantiriladi. 100 nafardan ko‘p ishchisi bor tadbirkorlik subyektlari soni 4 mingga yetkaziladi.

Shu yil 19-mart kuni davlatimiz rahbari kichik va o‘rta biznes vakillari bilan uchrashuv o‘tkazdi. Erkin suhbat, ochiq muloqot, do‘stona muhitda o‘tgan tadbirda tadbirkorlarning taklif va tashabbuslari tinglandi. Prezident tomonidan yangi tashabbuslar ilgari surildi. Natijada muhokama qilingan masalalar va takliflardan kelib chiqib, Prezident farmoni qabul qilinadigan bo‘ldi. Ushbu hujjatdagi yengilliklar qo‘shimcha hujjatlarni kutmasdan to‘g‘ridan to‘g‘ri amaliyotga kiritilishi belgilandi.

O‘sha kunning o‘zida “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmon qabul qilgani ayni muloqotning hosilasi bo‘ldi.

Mamlakatimizda so‘nggi besh yilda kichik va o‘rta tadbirkorlar soni 2 barobar o‘sdi. Ularda 10 million 500 ming odam daromad topib, ro‘zg‘or tebratyapti. Iqtisodiyot hajmining yarmidan ko‘pi, sanoat va eksportning uchdan biri shu soha vakillari hissasiga to‘g‘ri kelyapti. Ushbu raqamlarning o‘ziyoq kichik va o‘rta biznes mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun qanchalik muhimligini anglatmoqda.

— Farmon bilan 2025-yilda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishning asosiy maqsadli ko‘rsatkichlari belgilandi, — deydi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bo‘lim boshlig‘i Akmal Akromov. — Shuningdek, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishning 2030-yilgacha bo‘lgan muddatdagi strategiyasi ishlab chiqildi.

Mazkur strategiya o‘z ichiga yettita asosiy ustuvor yo‘nalishni oladi. Bular sirasiga tadbirkorlik faoliyati uchun muhim bo‘lgan raqamlashtirish, sun’iy intellekt va innovatsiyalarni joriy etish bo‘yicha zarur shart-sharoitlar yaratish, barcha tadbirkorlik subyektlarini ayni yo‘nalishda o‘qitish, malakasini oshirish ham kiradi.

Eng asosiysi, farmon bilan kichik va o‘rta biznes subyektlarining yiriklashuvini rag‘batlantirishga qaratilgan mexanizmlar joriy etiladi. Jumladan, 2025-yil 1-maydan o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar YTT yoki yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganda davlat boji undirilmaydi. O‘z faoliyatini YTT, mikrofirma yoki kichik korxona toifasigacha yiriklashtirgan o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar va tadbirkorlarga Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi



doirasida 50 million so‘mgacha, Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash kompleks dasturi doirasida 150 million so‘mgacha garovsiz kreditlar beriladi.

O‘z faoliyatini o‘rta yoki yirik biznes toifasigacha yiriklashtirgan tadbirkorlarga bir yil davomida QQS summasi o‘rnini qoplash 7 kun muddatda tezlashtirilgan tartibda amalga oshiriladi.

— Bu hujjat tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun qulay biznes muhitini yaratish hamda ularning iqtisodiyotdagi ishtirokini ko‘paytirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir, — deydi Iqtisodiyot va moliya vazirligi boshqarma boshlig‘i Zafar Ahmedov. — Galdagi vazifa kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi ulushini 55 foizga yetkazib, 68 milliard dollarlik qo‘shilgan qiymat yaratish. Shuningdek, bir yarim million doimiy ish o‘rni tashkil etish orqali kichik biznes sohasida band bo‘lgan aholi sonini oshirish maqsad qilinmoqda.

Davlatimiz rahbarining Qoraqalpog‘istonga alohida e’tibori natijasida hududning investitsion jozibadorligi sezilarli darajada oshdi. Viloyatlar, hattoki Toshkent shahridan borib, u yerda tadbirkorlik qilayotgan yurtdoshlarimiz faoliyati bunga misol.

Mazkur farmonda ham Qoraqalpog‘istonga alohida yondashuvni ko‘rish mumkin. Xususan, 2025-yil 1-iyulga qadar Qoraqalpog‘istonga borib ish boshlagan yuridik shaxslarga onlayn mikrokredit ajratish jarayonini soddalashtirish va ularni tezkor tasdiqlash mexanizmlari joriy etiladi.

Shuningdek, Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash kompleks dasturi doirasida Ijtimoiy himoya yagona reyestrida turgan ishsiz fuqarolarni ish bilan ta’minlagan



kichik va o‘rta biznes subyektlariga ushbu fuqarolar uchun tashkil qilingan har bir ish o‘rniga qo‘shimcha ravishda 10 million so‘mdan, 10 va undan ko‘p bunday ish o‘rinlarini tashkil qilgan subyektlarga 100 million so‘mgacha 3 yilgacha muddatga yillik 14 foiz stavkada aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun kredit ajratiladi.

Farmonda “chempion” tadbirkor mezonlari aniq belgilab qo‘yildi. Bunday sharafli nomga egalik qilmoqchi bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari tuman, shahar darajasida har birida kamida 2 tadan yillik aylanmasi 10 milliard so‘mdan yuqori bo‘lgan korxona tashkil etgan va 50 tadan ortiq ish o‘rni yaratgan bo‘lishi kerak. Shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida 5 tadan yillik aylanmasi 100 milliard so‘mdan yuqori korxona va 500 tadan ortiq kishini band qilgan, respublika darajasida yillik aylanmasi 1 trillion so‘mdan yuqori bo‘lgan hamda 5 mingdan ortiq odamni ishga jalb qilgan tadbirkorlik subyektlari ham shunday nomga loyiq ko‘riladi.

Farmonga muvofiq, 2025-yil 1-maydan 20 ta tumanda Sanoatni jadal rivojlantirish bo‘yicha loyiha ofislari, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan 9 ta shtat birligidan iborat Sanoatni jadal rivojlantirish bo‘yicha bosh loyiha ofisi tashkil etiladi.

Yangi tadbirkor “oyoqqa turib olishi” uchun faoliyatining birinchi yili g‘oyatda muhim. Tajribasizlik ortidan ayrim huquqbuzarliklar kelib chiqishi mumkin. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan bu toifa tadbirkorlariga yengillik berilmoqda. Ya’ni 2025-yil 1-iyuldan 2028-yil 1-yanvarga qadar kichik va o‘rta biznes subyektlari zimmasiga yangi majburiyatlar yuklanishini nazarda tutadigan normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishga moratoriy e’lon qilinadi.

Farmon bilan joriy etilayotgan eng muhim yangiliklardan yana biri, 2025-yil 1-sentabrdan boshlab oxirgi uch yilda tovarlarni realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi 10 milliard so‘mdan oshmagan, byudjet va kreditorlar oldida qarzdorligi mavjud bo‘lmagan hamda muntazam ravishda soliq hisobotlarini taqdim etayotgan, “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimida huquqbuzarlik sodir etish xavfi past darajada tasniflangan kichik va o‘rta biznes subyektlari faoliyatini ixtiyoriy ravishda tugatganda soliq tekshiruvi o‘tkazilmaydi.

Yana bir muhim jihat. Kelgusi yildan boshlab o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyatning 72 turi ko‘rsatilgan ro‘yxat tasdiqlandi.

Bir so‘z bilan aytganda, mazkur farmon bilan berilayotgan yengilliklar, imtiyozlar, qo‘shimcha rag‘batlantirish choralari tadbirkorlar safining yanada oshishiga, kichik va o‘rta biznesda yanada yuqori “sakrash” paydo bo‘lishiga zamin yaratadi.

**Lutfulla SUVONOV,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

Nuqtayi nazar



**Mustaqillikka erishish ulug‘ bir ne’mat bo‘lsa, uni mustahkamlash ham katta mashaqqat, birdamlik talab qiladi. Ming shukrki, xalqimiz bu yo‘lni jipslikda, mardonavor bosib o‘ta oldi. Xo‘sh, bu vaqt davomida nimalarga erishdik? Eng avvalo, millat sifatida dunyoga tanildik, mustaqil, suveren davlat maqomida jahon hamjamiyatida munosib o‘ringa chiqdik. Qadriyatlar tiklandi, milliy meros xalqqa qaytarildi, urf-odatlar, an’analar qayta jonlantirildi, diniy e’tiqod, madaniyat, milliy til va adabiyot xalq nomidan bo‘y ko‘rsata boshladi. Qolaversa, iqtisodiyot, ijtimoiy ta’minot, inson huquqlari ustuvorligi, milliy davlatchilik tamoyillari muntazam takomillashtirib borildi va bu davom etmoqda.**

# QADRIYATLARGA HURMAT

## XALQIMIZGA XOS ODAT BO‘LISHI ZARUR

Ayni jumlalar kim uchundir baland-parvoz tuyulishi mumkin, ammo jamiyat hayotiga xayrixoh bo‘lib yurganlar uchun bu ayni haqiqat. Tarixni hech kim qayta yoza olmaganidek, uni o‘zgartirish imkoniyati ham mavjud emas. Shunday ekan, biz tarixni emas, ko‘proq o‘z dunyoqarashimizni o‘zgartirishni o‘ylashimiz kerak, nazarimda.

Bu bilan nima demoqchiman?

Islohotlar xalqqa xos barcha qadriyatlarni tiklashi, millatga qaytarishi mumkin, ammo millat vakillari uni chuqur anglamas ekan, qanday ne’matlarga qayta ega bo‘lganini his etmaydi. Masalan, bugun aksariyat yoshlar uchun milliy qadriyatlar tiklangani yoki tiklanmaganining ahamiyati ozdek go‘yo. Chunki ularning bir qismida ommaviy madaniyatu kosmopolitizm g‘oyalariga moyillik borki, milliy o‘zlik ramzi bo‘lgan do‘ppi kiysangiz, erish tuyuladi, vatanparvarlik haqida gapirsangiz, ensa qotiradi. Lekin bu bilan ko‘pchilik yoshlar shunday, deyish fikridan mutlaqo yiroqman.

Sobiq sho‘rolar davrida o‘zligimizning ajralmas qismi bo‘lgan tilimizdan, dinimizdan, qadriyatlarimizdan ajratishga qaratilgan siyosat qanchalik agressiv yuritilgan bo‘lmasin, ota-bobolarimiz uni saqlab qolishga shunchalik uringan. Shunday ekan, ne mashaqqatlar bilan qutqarilgan bu qadriyatlarga eskilik sarqiti, deya qarashga ma’naviy haqqimiz bormi? Keling, quyida ushbu savolning javobiga olib boruvchi ayrim fikrlar ustida mulohaza yuritamiz.

Tarixda dunyoning yetti mo‘jizasidan biri sifatida nom chiqargan Artemida ibodatxonasiga Gerostrat degan kimsa tomonidan o‘t qo‘yiladi. Uning bunday razillikka qo‘l urishdan asosiy maqsadi “tarixda nom qoldirish” bo‘lgan. Afsuski, bugun aksariyat yoshlar ham “tarix”ga kirish, mashhurlikka erishish uchun ijtimoiy tarmoqlar, turli mediaplatformalar orqali shov-shuv ko‘tarib, obunachi yig‘ish bilan ovora bo‘lyapti. Bu ikki o‘xshatishning o‘zaro aloqadorligi shundaki, birinchisida kaltabinlik bilan insoniyatga qarshi jinoyat qilingan bo‘lsa, ikkinchisida millatga, avlod-ajdodlarga, milliy mentalitetga hamda azaliy qadriyatlarga qarshi ma’naviy jinoyat sodir etilmoqda. Achinarlisi, bugungi davr aksariyat yoshlari dunyoqarashida ma’naviy marginallashuv o‘sib bormoqda, ular uchun tezda omma e’tiboriga tushish, mehnatsiz daromad topish, yengil-yelpi hayot kechirish, o‘zgalar hisobiga bo‘lsa-da “yaxshi yashash” orzusi ustuvor bo‘lib qolayotgandek. Buning oqibati qanday bo‘ladi? Ularning shu taxlit turmush tarzi, dunyoqarashi, ijtimoiy munosabati natijasida qanday umuminsoniy, ma’naviy mulklar boy beriladi?



Birinchidan, umuminsoniy qadriyat bo‘lgan vijdon, diyonat, insoniylik o‘rniga vijdonsizlik, diyonatsizlik va egoizm qaror topib, o‘zidan boshqani o‘ylamaydigan avlod shakllanadi.

Ikkinchidan, azaliy qadriyatlarimiz hisoblanmish mehr-oqibat, kattaga hurmat, kichikka izzat, ota-onaga xizmatda bo‘lish, oila muqaddasligi, vatanparvarlik tuyg‘ulari o‘rniga ko‘chada avtohalokatga uchragan odamni tezda videoga olib, ijtimoiy tarmoqqa joylashtirish yoki ko‘chada ketayotgan yoshi katta insonni biri urib yiqitib, ikkinchisi tasvirga olib, ijtimoiy tarmoqdagi sahifalariga sizdirishini oddiy holdek qabul qilish darajasiga o‘tadi. Ota-onaga xizmat qilish o‘rniga ularning tiriklik chog‘idayoq aka-ukalar o‘rtasida meros talashish, o‘z holiga tashlab qo‘yish, oilani muayyan manfaatlar asosida qurish, uning “yashab qolishi”ni shu manfaatlarga bog‘lab umr kechirish kabi illatlar “yangi qadriyat” tarzida kundalik hayotimizga kirib keladi.

Uchinchidan, yoshlar shaxs sifatida xalqi, oilasi oldidagi burchini unutib, mas’uliyatsiz bo‘lib voyaga yetadi. O‘zgalarga yordam



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

qilish tuyg‘usi yo‘qolib, o‘z manfaatini vatan manfaatidan ustun qo‘yish illati qaror topib boradi hamda kimgadir aziyat berib bo‘lsa-da, o‘zi uchun to‘g‘ri deb bilgan yo‘ldan yurish urfga kiradi.

To‘rtinchidan, kishi shaxsiy hayotida moddiyatga intilishi birlamchi vazifa sifatida qabul qilinib, unga erishish uchun xalq yoki vatan manfaatlariga xilof ish qilish, qonunlarga bepisand qarash, o‘zgalar mulkini o‘zlashtirishga urinish, ta’magirlik kabi illatlar odatiy hol darajasiga chiqib, bularni sodir etishdan vijdon qiynalmay boshlaydi.

Beshinchidan, e’tiqodsizlik, imonsizlik, riyokorlik, xo‘jako‘rsinga harakat qilish avj oladi, ya’ni kishi tashqi ko‘rinishdan mo‘minqobil, ammo zohiran munofiq bo‘lsa-da, uni o‘zi sezmaydigan, bu borada boshqalar fikrini eshitishni istamaydigan bo‘lib gavdalanadi.

Oltinchidan, milliy qadriyatlarga befarq qaraydigan avlod shakllanib, ular urf-odatlarni hurmat qilmaydi, amal qilish majburiyat ekanini tan olmaydi. Bunday kishilar ijtimoiy hayotidagi illatlarda aybni tashqi muhitdan qidiradigan bo‘lib, menga atrofimdagilar nima qilib berdi, barchasiga o‘z kuchim bilan erishdim, degan tushuncha bilan yashaydi.

Xo‘sh, xalqimizga xos bo‘lmagan bu illatlardan qutulishning yo‘li bormi? Qanday qilib ularni tuzatish mumkin? Nima qilsak ajdodlar merosiga munosib voris sifatidagi jahoniy obro‘miz yanada yuksaladi?

Darhaqiqat, har qanday sinov ortidan bir yaxshilik daragi bo‘ladi. Bunga mukammal ishonch bilan inonish, o‘zimizni o‘zgartirishga qat’iyatli bo‘lishning o‘zi kifoyadir. Chunki ishonch tufayli juda ko‘p muammolarni yengib o‘tish mumkin. Ammo o‘zimiz o‘zgarishni istamas ekanmiz, hech kim bizni o‘zgartirishga qodir bo‘lolmaydi. Shu o‘rinda o‘zimizni o‘zgartirishga oz bo‘lsa-da ko‘mak beradigan quyidagi tavsiyalarni berishga ijozat etgaysiz.

Farzandlarimizni tarbiyali, madaniyatli, vatanparvar inson sifatida milliy mentalitetimizni hurmat qilishi, birinchi navbatda, ota-onalarga, oiladagi sog‘lom ijtimoiy muhitga bog‘liq ekanini unutmaslik lozim. Demak, birinchi o‘rinda yoshlarni emas, ota-onalarni milliy ruhda tarbiya etishimiz kerak. Mahmudxo‘ja Behbudiy aytib o‘tganidek, ona tilining chinakam ona tiliga aylanishi uchun, avvalo, onalarni savodli etmoq kerak.

Shuningdek, gumanitar fanlarni ta’limning barcha turlariga olib kirish, ularni chuqurlashtirib o‘tish tizimini joriy etish zarur. Darhaqiqat, yoshlarga insoniylik, vijdon amri tuyg‘ulari tarbiyaviy ta’lim orqali singdiriladi. Bu jarayonda gumanitar fanlar asosiy drayver hisoblanadi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, biz davlat va jamiyat manfaatlari yo‘lida halol mehnat qilgan, bu borada barcha ijtimoiy chaqiriq va da’vatlarga “labbay” deb javob bergan ota-onalarimiz avlodi ta’sirida tarbiyalandik. Ularning bunday avlod bo‘lishida ijtimoiy fanlar tizimining o‘rni va ahamiyati katta bo‘lgan.

Keyingi navbatda fuqarolarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini belgilovchi axloqiy normalar ishlab chiqilishi darkor. Bunda farzandi ma’naviy, axloqiy tubanlik sari olib boruvchi ijtimoiy tarmoqlardagi kontentlardan foydalangani uchun ota-ona ham javobgar bo‘lishi haqida norma aks etishi maqsadga muvofiq edi. Shu orqali voyaga yetmagan yoshlarga ota-ona tomonidan “qimmatbaho telefon” olib berilishini sezilarli kamaytirish mumkin. Chunki maktabda so‘nggi rusumdagi gadjet ko‘tarib yurgan, cheklovlarsiz internetga ulangan aksariyat bolalarning ota-onasi chet davlatlarda ishlab yurganiga faoliyatimda guvoh bo‘lganman. Ular o‘zlari bilmagan holda uchta javobgarlikdan qutulib qolmoqda. Birinchisi, farzandining axloqiy tarbiyasiga salbiy ta’sir etuvchi shart-sharoit yaratib berishdagi aybi bo‘lsa, ikkinchisi, mas’uliyatsizligidir. Uchinchisi esa shu befarqligi ortidan jamiyatdagi ijtimoiy muhitga yetkazayotgan zarari uchun javobgarlikdan qochish hisoblanadi.

Nihoyat, mahalla yig‘inlari faoliyatida “Qadriyatli oila” kengashini joriy etish zarur. Unga ko‘pni ko‘rgan nuroniy, psixolog va pedagoglardan iborat tajribali mutaxassislar jalb etilib, oila qurishga talabgor yoshlarni suhbatdan o‘tkazish, oila qurishdan maqsadini o‘rganish, bu masalada yoshlar oldida turgan mas’uliyatni anglash layoqatini test qilish, shundan so‘ng kengashning tavsiyasi orqali turmush qurishga ruxsat berish yoki bermaslik tizimini yo‘lga qo‘yish lozim. Shu orqali muayyan darajada bo‘lsa-da, sog‘lom oila konsepsiyasini amaliyotga kiritish mumkin. Chunki so‘nggi statistikalar ko‘rsatmoqdaki, xalqimizga xos bo‘lgan oila deb ataluvchi muqaddas maskan yoshlar tomonidan eng ko‘p qadrsizlantirilayotgan “qadriyat” bo‘lib qolayotir.

**Ulug‘bek YAZDONOV,**
**falsafa fanlari doktori, professor**

Dolzarb mavzu



# MAFKURAVIY XAVF

## YOXUD BIZGA “BUYUK KO‘CHISH” KERAK EMAS

### Mirmaqsud ota o‘gitlari

Ko‘pchilik qo‘shnilar mahallaning piru badavlat nuroniysi Mirmaqsud otaning gurungiga muhtoj. Qachon suhbatlashsam, mening ham ruhim yengil tortadi. Katta hayot tajribasiga ega otaxon huzuriga kelgan odam bilan gaplashishdan, xotiralarga berilishdan, pandu nasihatdan charchamaydi.

— Qariganda mutolaaga ko‘z o‘tmay, ba’zan televizor qariyalarga yaxshi ermak bo‘lib qolarkan, — deydi Mirmaqsud ota. — Tunov kun bir ko‘rsatuv ko‘rdim. Domla, muallim, shifokor, huquqshunos, yana allakimlar o‘tirvolib, yoshlarni yomonlashdi. Juda jahlim chiqdi. Turli toifa, turli tarbiya topgan yoshlar har bir zamonda bo‘lgan. Bundan 50-60 yil avval ham bizdan kattalar yoshlardan nolishar edi. Hamma ayb kattalarda, ularning farzandiga berayotgan va bermayotgan tarbiyasida.

— Hozirgi yoshlar o‘zidan katta avlod vakillaridan nimasi bilan farq qiladi? — deya so‘rayman otani ko‘proq gapirtirish maqsadida.

— Farq — maqsadda, — jon kiradi Mirmaqsud otaga. — Bizda ham maqsad, niyat, kelajak haqida o‘ylar bo‘lgan. Ammo ular hozirgi ko‘z bilan qarasang, juda g‘arib ekan. O‘qish, ilm olish, dunyo ko‘rish kabi maqsadlar biz uchun ikkinchi-uchinchi darajali narsalar edi. Asosan, uylanish, farzandlar ko‘rish va bir amallab tirikchilik o‘tkazib, bolalarning to‘yini qilish haqida o‘ylardik. Hozirgi yoshlarni qara, olamni olaman, deydi. Mana, qo‘shning Normatali, o‘zi haydovchi, kun ko‘rishi birovdan ortiq emasdi. Lekin o‘g‘il-qizlarini har qanday kishining havasi keladigan qilib ulg‘aytirdi. Kim o‘ylabdi Normatalining o‘g‘illari biri Germaniya, ikkinchisi Buyuk Britaniyada, qizi Xitoyda ta’lim olib keladi deb. Gap bu yerda ularning xorijda o‘qib kelganida ham emas, ularning maqsadlari katta ekanida. Kecha suhbatlashib qoldik. Aytishicha, katta o‘g‘li ochgan qo‘shma korxonasini yanada kengaytirayotgan emish. Kenjasini esa o‘zi ishlayotgan vazirlikda boshqarma boshlig‘i lavozimiga ko‘tarishibdi. Qiziyam yosh go‘dak farzandi bo‘lishiga qaramay, 30 yoshga to‘lmay turib, professor unvonini olibdi. Hayotda oldiga maqsad qo‘ygan yoshlar shunaqa bo‘ladi, bolam.

Normatali aka o‘g‘il-qizlari rohatini ko‘rayotgan mahalladoshlarimizdan. Yurtimizda yoshlarga yaratilgan imkoniyatlar ortidan farzandlari yuzaga chiqdi, halol mehnati bilan barcha havas qiladigan oila barpo qildi. O‘g‘illari yaqinda otasiga elektromobil sovg‘a qilganida esa uni og‘ir kunlar va mashaqqatli mehnatining ajri sifatida qabul qilib, ko‘ziga yosh oldi, duoga qo‘l ochdi.

— Mirmaqsud ota, hayotda bir oz adashgan, o‘z yo‘lini topa olmayotgan yoshlarga qanday nasihat qilgan bo‘lardingiz?

— Ma’lumot o‘rta bo‘lsa ham tarbiya oliy bo‘lsin. Mol-dunyo orttirish mumkin, ammo huzur-halovatni yo‘qotmaslik kerak. Kech yotib, erta turishni o‘rganishsin. Ko‘p kitob o‘qib, kam televizor ko‘rishi, telefonga termilishga barham berish lozim. Atrofga kame’tibor bo‘lishmasin. Pul topsa, oqilona sarflashni ham o‘rgansin. Jigarlariga oqibat ko‘rsatsin. Ruhiyatni toza tutish muhim. Baraka shoshma-shosharlikda emas, sabrda. Asosiysi, ota-ona, qariyalar duosiga loyiq, ana shu duoga munosib amal tutumida bo‘lishdir.

### Ogohlik shunchaki so‘z emas, u — chaqiriq

Ko‘cha eshigimiz bomdoddan shomgacha qulf ko‘rmasdi. Shundanmi, uyda doim kimdir bo‘lishiga qaramay, goh-goh mayda buyumlar yo‘qolib turardi. Deylik, singillarimning hovlida qarovsiz qoldirgan ayrim o‘yinchoqlari, tovuq katagidagi tuxum, daraxtda yetilib kelayotgan g‘o‘r meva degandek. Buni asosan qo‘shni bolalar — o‘zimning tengdoshlarimdan boshqa birov qilmasdi aslida.

Ba’zan shunday ko‘ngilxiraliklar ustiga kelib qolgan katta ammamiz har safar “Egasining ming poylagani — o‘g‘rining bir poylagani”, degan gapni aytardi. O‘sha kezlar bu maqolning mag‘zini chaqishga yosh tafakkurim quvvati kamlik qilar edi.

Bugun biz yoshlarimizni qanchalik asrab-avaylamaylik, ularni ma’naviy-mafkuraviy xavfdan muhofaza qilish uchun bor kuch-imkoniyatlarimizni ishga solmaylik, xuddi yuqoridagi maqolda nazarda tutilgan ma’no kabi buzg‘unchi kuch va yot g‘oyalar jamiyatimizga sizib kirishda davom etayotganini ko‘rib turibmiz.



**Bugun mafkuraviy xavf-xatarlar, aniqroq aytganda, axborot xatarlari va manipulyatsiyalar kibermakonda keng tarqalgan. Internet va raqamli platformalar orqali turli yolg‘on ma’lumotlar, tashviqot, ta’sir etish va adashtirish usullari ishlatilmoqda. Ular insonlar fikrini o‘zgartirish, ularni aldash, biror siyosiy yoki ijtimoiy g‘oyalarga mansub qilishga qaratilgan.**

Davlatimiz rahbari ishtirokida joriy yil 14-fevral kuni yoshlar bilan o‘tkazilgan muloqotda bugungi kunda mafkuraviy xavf-xatarlar allaqachon kibermakonga ko‘chib o‘tgani haqida ham gapirildi. Shu munosabat bilan yoshlarimizda internetdan foydalanish madaniyatini yanada yuksaltirish, ular yolg‘on ma’lumotlar qurboniga aylanishi, dunyoqarashi salbiy g‘oyalar ta’sirida shakllanishining oldini olish muhimligi ko‘rsatib o‘tildi. Farzandlarimizning ma’naviy tarbiyasi va mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, ularni yot g‘oyalardan asrash har birimizning vazifamizga aylanishi shartligi ta’kidlandi.

Bugun davlatimiz rahbari, yurtimiz ziyolilari ijtimoiy tarmoqlar xavf-xatar, noto‘g‘ri targ‘ibot maydoniga aylanib qolayotganidan bezovtalik bildirayotgani bejiz emas. Masalan, ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yilning ikkinchi yarmida ayollarning tazyiqqa uchragani hamda huquqlari buzilgani haqida 5 mingdan ortiq material tarqatilgan va bular 76,6 million marta ko‘rilgan. Xavfli tomoni — bunaqa kontent nafaqat ayollarni tahqirlash, balki umuman zo‘ravonlikni odatiy holat sifatida qabul qilishga olib kelishi mumkin. Bu esa tajovuzkorlikni to‘xtatishga emas, aksincha, yanada ommalashtirishga xizmat qiladi. Shu kabi yo‘nalishdagi mavzularni sensatsiya sifatida taqdim qilishga cheklovlar joriy etish, bu bo‘yicha qonunchilikka o‘zgartirishlar kiritish haqida bosh qotiradigan vaqt keldi.

Yoshlar bilan muloqotda Prezidentimiz bugun jahon miqyosida taraqqiyot sur’atlari misli ko‘rilmagan darajada shiddatli tus olayotgani, ayni vaqtda azaliy qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy qarashlar tizimida chuqur transformatsiya jarayonlari yuz berayotgani mavzusiga alohida to‘xtalib o‘tdi. Ilgari o‘z maqsad va manfaatlarini asosan diplomatiya va siyosat bilan himoya qilib kelgan dunyodagi qudratli markazlar endi ochiqchasiga bosim o‘tkazish, qarama-qarshilik va to‘qnashuvlar yo‘liga o‘tganiga e’tibor qaratdi.

“Afsuski, bunday keng ko‘lamli va o‘ta ziddiyatli jarayonlarning ta’siri Markaziy Osiyo mintaqasi va uning tarkibiy qismi bo‘lgan mamlakatimizni ham chetlab o‘tmayapti. Ana shunday g‘oyat murakkab va tahlikali vaziyatda O‘zbekistonning milliy manfaatlariga javob beradigan to‘g‘ri yo‘lni topish albatta oson bo‘lmayapti. Biz dunyodagi uzoq-yaqin barcha davlatlar bilan o‘zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirishga harakat qilyapmiz”, dedi davlatimiz rahbari.

Muloqotda mavjud imkoniyatlarni yanada kengaytirish chora-tadbirlari haqida so‘z yuritar ekan, Prezidentimiz yoshlarni xalqimizning oltin fondi deb atadi. Shuningdek, jamiyatimiz oldida turgan o‘ta muhim vazifalarga ham batafsil to‘xtalib o‘tdi. “Bugun ma’naviyat boshqa sohalardan o‘n qadam oldinda yurishi kerak, ma’naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi shart!” deya alohida ta’kidladi.

Ha, bugun mafkuraviy xavf-xatarlar, aniqroq aytganda, axborot xatarlari va manipulyatsiyalar kibermakonda keng tarqalgan. Internet va raqamli platformalar orqali turli yolg‘on ma’lumotlar, tashviqot, ta’sir etish va adashtirish usullari ishlatilmoqda. Ular insonlar fikrini o‘zgartirish, ularni aldash, biror siyosiy yoki ijtimoiy g‘oyalarga mansub qilishga qaratilgan.

Unutmaslik kerakki, farzandlarimiz o‘z qadriyatlari, ma’naviy asoslari va ijtimoiy tafakkuri bilan kelajakka qadam qo‘yadi, shuning uchun ularning ma’naviy tarbiyasi va mafkuraviy immunitetini kuchaytirish har bir ota-ona, pedagog va jamiyatning muhim vazifasidir.

Bunda ma’naviy tarbiyaning asosiy jihatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Yot g‘oyalarga qarshi turish va ma’naviy immunitetni oshirish faqat oilada yoki maktabda emas, balki jamiyatning barcha a’zolari birgalikda amalga oshirishi kerak bo‘lgan vazifadir.

Bor gap shuki, mafkuraviy xavf kibermakonga ko‘chib o‘tishga harakat qilyapti. U “buyuk ko‘chish” maqomini olmasligi uchun jilovni men bilan siz qo‘limizga olishimiz shart. Bunda tobora saflari kengayib borayotgan yuksak maqsadlarni ko‘zlayotgan yoshlar tayanch bo‘ladi.

**Nodir QOBILJONOV,**
**jurnalist**

Bu — qiziq!



# Bobur Mirzo va YANGI O‘ZBEKISTON HAQIDA UCHTA FAKT




**Yurtimizda ulug‘ ajdodlarimiz nomini abadiylashtirish, merosini yoshlar orasida keng targ‘ib etishga alohida e’tibor berilmoqda. Chunki ularning boy merosini qancha o‘rgansak, namuna olsak, ko‘zlangan marralarni shunchalik tez zabt etamiz. Kuni kecha Mirzo Bobur xotirasini abadiylashtirish borasida juda katta xayrli tashabbus ilgari surildi. Biz bor-yo‘g‘i uchta fakt orqali shoh va shoir bobomizning g‘oyasi bugungi kunimizga qanchalik uyg‘un ekanini ochib berishga urindik.**

* * *

Zahiriddin Muhammad Bobur hayotlik davrida “Bog‘i Istolib”, “Bog‘i Navro‘ziy”, “Bo‘stonsaroy”, “Chorbog‘”, “Bog‘i Behishtiy”, “Bog‘i Nur”, “Bog‘i Xilvat” kabi ajoyib, betakror bog‘larni bunyod etgan. U shoirona qalbi bilan tabiatni sevar, shohona shijoati ila bog‘u bo‘stonlar yaratardi.



Bugun yangi O‘zbekistonda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida ko‘plab bog‘lar barpo etilmoqda. Hatto Orolning qurigan tubi yashillik dunyosi bilan boyidi. Kuni kecha esa davlatimiz rahbari Andijondagi “Yangi O‘zbekiston” bog‘i bilan tanishdi.

* * *

Mirzo Bobur “Boburnoma” asarida O‘rta Osiyodan Hindistongacha bo‘lgan masofadagi deyarli 50 yillik voqealarni haqqoniy ifoda etgan. U o‘ziga nisbatan ham nihoyatda odillik bilan yondashadi. O‘zi haqidagi bor gapni, kamchiliklarini ham yashirmay, haqqoniy hikoya qiladi. Afsus va armonlarini, quvonchiga sabab bo‘lgan hodisa, insonlarni adolatli tarzda talqin qiladi. Bunday adolatpeshalik unga barqaror va qudratli mamlakat barpo etishda qo‘l keldi. Turfa qabila va e’tiqodlarga bo‘lingan Hindistonda teng huquqiy asosdagi mamlakat vujudga keldi. Bularning barchasi Boburni dunyoga adolat timsoli sifatida tanitdi.

Bugun yurtimizda inson qadri uchun boshlangan islohotlar adolatli jamiyat barpo etishga undadi. Natijada bir bo‘lsak — yagona xalq, birlashsak — vatan bo‘lishimizni angladik. Jamiyatimizda ana shunday ahillik ruhi paydo bo‘ldi. Hatto bir paytlar bahslarga, nizolarga boy hudud deya qaralgan Markaziy Osiyo mamlakatlari jipslashdi. Ular o‘rtasida teng huquqiy asosdagi do‘stona diplomatiya o‘rnatildi.

* * *

Bobur hukmronligi davrida adabiyot, san’at, shaharsozlik rivojlandi. Boburning avlodlari esa bobosining bunyodkorlik ishlarini munosib davom ettirdi. Mamlakatda mukammal ma’naviy-ruhiy muhit vujudga keldi.

Zahiriddin Muhammad Boburning bolalik va o‘smirlik yillari haqida roman yozgan, “Boburnoma”ni ingliz tiliga tarjima qilgan Uilyam Erskin Boburni Osiyo podshohlariga qiyosan bunday baholaydi: “Saxovati va mardligi, iste’dodi, ilm-fan, san’atga muhabbati va ular bilan muvaffaqiyatli shug‘ullanishi jihatidan Osiyodagi podshohlar orasida Boburga teng keladigan birorta podshoh topilmaydi”.

Yangi O‘zbekistonda ham ilm-fan, adabiyot va san’atga yuksak darajada e’tibor berilmoqda. Davlatimiz rahbari Yangi Andijon shahrini Bobur shahri deb nomlash tashabbusini ilgari surdi. Prezidentimiz har yili Bobur shahrida rassomlar festivalini o‘tkazishni taklif qildi. Mutasaddilarga shaharni ma’rifat va madaniyat markaziga aylantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan qaror loyihasini ishlab chiqish topshirildi.

O‘zbekistonlik yoshlar ilm-fan, sport, adabiyot va san’atda o‘z o‘rnini topib bormoqda. Ular yuksak marralarni zabt etmoqda. Bunga joriy yil 14-fevral kuni Prezidentimizning yoshlar bilan muloqoti chog‘ida yana bir bor amin bo‘ldik. Bularning barchasi yurtimizda mazkur yo‘nalishlarga qaratilayotgan e’tibor samarasidir.

**Boboravshan G‘OZIDDINOV,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

Mulohaza



**Olamda yuz berayotgan voqea-hodisalar, yangiliklar, yaxshi-yomon o‘zgarishlarga ko‘ra, davrlar o‘ziga nom yaratadi: tosh asri, sanoat asri, atom asri kabi. Mazkur mantiqqa muvofiq, bugungi davr allaqachon axborot asriga aylangan. Insoniyat ma’lumotlar, raqamlar, xabarlar olamiga sho‘ng‘ib ketgan. Internetda sanoqsiz ijtimoiy tarmoqlarning paydo bo‘lishi axborot va ma’lumot manbalarini juda ko‘paytirib yubordi. Biroq...**

# AXBOROT ASRIDA UNING ASIRIGA AYLANMAYLIK

Kamdan-kam odam qanday ma’lumotlar yozish, tarqatish va tanlab o‘qish madaniyatiga amal qiladi. Xavotirlisi shundaki, tartibsiz, cheksiz axborot oqimi inson tafakkuri, ma’naviyati va sog‘lig‘iga qanday ta’sir ko‘rsatayotgani to‘g‘risida deyarli o‘ylab ko‘rmayapmiz. Xuddi gipnoz qilingandekmiz.

## Haddan ziyod axborot qalbni kambag‘allashtiradi

Yaqinda mazkur mavzuga oid ilmiy ishlardan birida qayd etilgan fikr-mulohazalar bu xususda maqola yozishga undadi. Unda, jumladan, bunday deyiladi: “Axborot va xabarlarning haddan ziyod bo‘lishi (ya’ni duch kelgan har narsani o‘qiyverish) qalbni kambag‘allashtiradi, inqirozga olib boradi. Eng yomoni ularda negativ haddan ziyod bo‘lsa, bizni kun sayin o‘z domiga tortib ketayotganini his etgan chog‘imizdan zararga aylanadi. Bunda yon-atrofimizdagi barcha narsa ko‘ngilni xira qiladi, tajovuzkor va o‘ta tashvishli ko‘rinishga kiradi. Haqiqiy hayot borasidagi tushunchalarimiz teskari tus oladi. Ayni paytda kundalik hayotning boshqa qirralari ham xiralashib ketadi go‘yo...”.

## Ularni nima uchun o‘qiymiz va ko‘ramiz?

Mohiyatan biz atrofimizda yuz berayotgan jarayon va voqealarni anglash, tushunish uchun ma’lumotlarni o‘qiymiz. Biroq tartibsiz, oxiri yo‘q salbiy ma’lumotlar bizni o‘z domiga tortib ketayotir. Bu borada mutaxassislar ham OAV orqali o‘z munosabatini bildirmoqda.

Ayni mavzuda ilmiy tadqiqot qilayotgan mutaxassislar tilida “dumskorlling” degan atama paydo bo‘lgan. Bu insonning salbiy, yomon xabarlarni o‘qish va ko‘rishga haddan ziyod berilib ketish, deganidir. Bunday toifa negativ xabarlarni ko‘rmasa, o‘qimasa, kasal bo‘ladigan darajaga tushib qoladi. Yana bir tashvishli jihati, bunday xabar va videolar vaqtimizni behuda olgani yetmagandek, ommaning muayyan toifasi tomonidan to‘g‘ri va qiziqarli deb qabul qilinyapti. Oxir-oqibat bunday odamlarning o‘zi ham negativ kontent yaratishga kirishib ketganini bilmay qolmoqda. Tabiiyki, bu odam ruhiyatiga juda salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, har qanday xabar-u yozishma, videoroliklarni tanlash, ong prizmasidan o‘tkaza bilish lozim, deydi psixologlar.

Bugun o‘ta dolzarb tus olgan mazkur mavzuga oid savollarimizga neyropsixolog, professor Zarifboy Ibodullayev bunday xulosa bildirdi:

— Negativ fikr ko‘payib ketsa, inson ruhiyatiga juda halokatli ta’sir ko‘rsatadi. Bunday fikrlar hamma jamiyatda, yozma yoki og‘zaki shaklda bo‘lgan. Inson aql-zakovatini ishlatib, bunday ma’lumot, axborotga munosabat bildiradi, uning to‘g‘ri yoki xato ekanini tahlil qiladi. Agar jamiyatda ommaviy tarzda negativ fikr ko‘payaversa, bu jamiyat rivojlanishiga ham, jamiyatni boshqarayotganlarga ham, umuman yon-atrofda ro‘y berayotgan barcha voqea-hodisalarga nisbatan insonlar ongida jiddiy salbiy munosabat shakllantiradi. Salbiy fikrlar to‘g‘ri ham, noto‘g‘ri ham bo‘lishi mumkin. Muammo ularning qay biri to‘g‘riyu qaysisi noto‘g‘ri ekanini farqlay bilmaslikda. Bu yanada og‘ir holatga — depressiya, apatiyaga olib keladi.

Yana bir katta muammo shundaki, aholi orasida, xususan, ijtimoiy tarmoqlarda negativ fikrlar juda ko‘payib ketsa va unga masalan, rahbarlar, olimlar, mutaxassislar, ziyolilar tomonidan munosabat bildirilmasa yoki o‘sha negativ fikrlar e’tiborga olinmasa, aksincha, rasmiy ommaviy axborot vositalarida hamma holat pozitiv sifatida ifodalanaversa, bu ham salbiy oqibatlarga olib keladi.

Aytaylik, temirchi biror buyum yasash, xomashyoga ishlov berishda uni kuchli olovda qizdirish, so‘ng muayyan shaklga solish uchun bolg‘a bilan obdan urish, so‘ng darhol sovuq suvga solib sovitish kabi ishlarni bajaradi. Insonning yaxshi-yomon, to‘g‘ri-noto‘g‘ri, har xil ma’lumot va tasvirlarni ko‘raverishi davomida ongida taxminan ana shu kabi keskin ruhiy holatlar yuz beradi. Aholi ham xuddi shunday turli aloqa vositalari orqali faqat negativ fikrlar eshitaversa (ko‘raversa), istasa-istamasa, ong ostida buning javobi qanday bo‘larkan, degan savol yuzaga keladi. Bunga tegishli mutasaddilar, mutaxassislar qanday fikr bildiradi deb kutadi. Ya’ni shuurida, ong ostida kutish fenomeni paydo bo‘ladi. Lekin bunga javob topolmaydi.

Kechki payt esa nuqul pozitiv fikrlar eshitadi. Afsuski, ularning to‘g‘risi ham, noto‘g‘risi ham bo‘lishi mumkin. Bu holat, yuqorida aytilganidek, temirga ishlov berishga o‘xshaydi. Ya’ni fikrlarni keskin bosim ostida taqqoslash boshlanadi. Ushbu jarayon, ilmiy tilda aytganda, kognitiv charchash sindromini yuzaga keltiradi. Ayni holatga tushgan odamning qo‘li ishga bormaydi, uydan chiqqisi kelmaydi. Hatto to‘g‘ri, ijobiy fikrlarni o‘qish istagi so‘nadi. Tasavvur qiling: u uydan chiqmadi, ishga bormadi va ijobiy yaratuvchanlik hissiyoti so‘nadi. Bu holat jamiyatda ommaviy tarzda ro‘y beraversa, aholi ongida depressiya kuchayadi.



**USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!**

Shu ma’noda, maslahat bunday: depressiyaga, apatiyaga tushmaslik uchun mehr qo‘ygan kasbingiz, hunaringiz bilan mashg‘ul bo‘ling. Aytaylik, temirchi bo‘lsangiz, aholiga kerakli, foydali buyumlar yasab soting, daromad qiling. Yoki olim bo‘lsangiz, o‘zingizning ustingizda ishlab, sohangizni rivojlantirish bilan mashg‘ul bo‘ling, yangi kashfiyotlar yaratishga intiling. Barcha sohadagi muammolar yechimi — ilmda. Qaysi sohada bo‘lmang, ilm izlang, tajriba orttiring. Chuqur ilmga ega bo‘lsangiz, bu jismoniy va ruhiy holatingizni muvozanatda tutib turishga ko‘maklashishi shubhasiz.

* * *

Taniqli pedagog olimning bu fikrlariga qo‘shilmasdan iloji yo‘q. Lekin kimlardir buni faqat ijtimoiy tarmoqlarga tegishli deb baholasa, adashadi.

Ijtimoiy tarmoqlar oqimi, ahvolini ko‘pchilik tushunib bo‘lgan. Lekin tasvir, ovoz, montaj kabi vositalarga egaligi bilan katta ta’sir ko‘rsatayotgan televideniye (ayniqsa, xususiy kanallar) mazkur muammoning kuchayishiga mutlaqo aloqador emas deb bo‘lmaydi. Ayniqsa, hajviy guruh, qiziqchi sifatida tanilganlarning tomosha, konsertlarini oilaviy ko‘rib bo‘lmay qolyapti. Ilgari tor doirada aytiladigan hazillar allaqachon TVning katta doirasini egallab bo‘ldi. 24 soat efirga uzatiladigan xususiy kanallar esa bo‘sh soat o‘rnini to‘ldirish uchun bu kabi tomoshalarni qayta-qayta aylantirishdan charchamaydi. Zalni to‘ldirib o‘tirgan tomoshabinlarning bu gap-so‘zlarni qarsak chalib olqishlashi uni ko‘rayotgan millionlab odamlarning bu holatni to‘g‘ri deb qabul qilishiga, ommaviy joylarda ham bemalol shunday so‘zlashish mumkin ekan, degan tushunchaga borishiga sabab bo‘lmayaptimi?

Gazetamizning doimiy muxlisi, keksa pedagoglardan biri suhbat chog‘ida juda achchiq, lekin mulohazali xulosalarini bildirgan edi. Bir-biridan bema’ni seriallar, tuturuqsiz, behayo hazillar, shahvoniy va agressiv filmlar sezdirmasdan ong ostiga ta’sir ko‘rsatmoqda, egoizm va zo‘ravonlik ruhini singdirayotir. Shunday ta’sir ostida ulg‘aygan avlod vakillari qisqa muddatda maqsadsiz, mazmunsiz hayot kechiradigan mavjudotga aylanadi-ku, dedi u jonkuyarlik bilan.

* * *

Haqiqat bahs-munozaralarda yuzaga chiqadi, degan iborani ko‘pchilik biladi. Shu ma’noda, yana mutaxassislardan biriga quloq tutamiz. Shifokor-ruhshunos Baxtiniso Azimboyeva bunday yozadi:

— Bugun sharh va izohlarda negativlar ko‘paygan. Menimcha, birinchidan, negativ axborotlar keng tarqalyapti. Bunday axborotlarning ruhiy-hissiy to‘lqini odamlarga ta’sir qiladi. Masalan, oldinlari televideniyeda qayg‘uli lavhalar deyarli ko‘rsatilmasdi. Hozir internetda qandaydir xunuk, ko‘rsangiz g‘ashingiz keladigan lavhalar keng tarqalmoqda. Odamlar ularni ko‘rib, o‘zi bilmagan holda o‘sha holatlarning negativ to‘lqiniga tushib qolyapti.... Men o‘zimga murojaat qiladiganlarga “Instagram ko‘rmaydigan bo‘lsang, qabulimga kel”, deyman. Instagram — tomosha maydoni. O‘z ustida ishlayman, degan odam instagramni yig‘ishtirishi kerak. Masalan, kitob o‘qish, jismoniy mashqlar qilish zarur. Uyga ham mehr, uyda ham qandaydir parvarish darkor. Instagramda esa o‘ziga jalb qilish uchun kuchli ruhiy hissiyot ifodalanadi va boshqalar uning ta’siriga tushib qoladi. Deylik, molini sotish uchun har xil o‘ramlar, yaltir-yultirlar tayyorlanadi, odamlarga kerakmi-yo‘qmi, bu qiziqtirmaydi ularni.

E’tibor berayotgan bo‘lsangiz, bugun emotsiyaga ta’sir qiladigan qayg‘uli holatlar ko‘p tarqalyapti. Pozitiv, masalan, birovning yutug‘idan quvonish, tan olish esa deyarli yo‘q. Negativ yozayotganlar hayotda biror narsaga erisholmayotganlar aslida. Deylik, ularga okeanda suzish o‘rgatilgan bo‘lsa, qaysi tomon suzishni bilmayapti. Bu iqtisodiy holatga ham borib taqaladi. Erkak oilasini boqish uchun qayerlargadir ketib qolyapti. Ro‘zg‘orni butlab qo‘ymagach, o‘zini oila boshlig‘i, deya olmaydi-da. Ayollar esa erkaklar mas’uliyatini bo‘yniga olishga majbur bo‘lyapti. Xullas, yashab qolish, “o‘zining jonini saqlash” jarayoni ketmoqda.

Negativlik ko‘proq bilimsizlik, dangasalikdan yuzaga kelyapti. Ular o‘qishni xohlamaydi. Yengil hayotga intiladi. Pulim bo‘lsa, baxtli bo‘laman deb o‘ylaydi. Aslida, baxtli bo‘lishni o‘rgansa, pul kelishini bilmaydi. Yuqorida aytilganidek, internetda axborot nihoyatda ko‘pligidan inson miyasi qabul qilishida zo‘riqish yuz bermoqda. Qaysi biri to‘g‘ri, qaysisi noto‘g‘ri ekanini bilishga ulgurmayapti. Hali besh-o‘n yil shunday bo‘ladi, chunki hozir saralanish davridamiz.

## Salbiy xabarlar tashvish va qo‘rquvni kuchaytiradi

Negativ xabarlarning zarbli to‘lqinida yaxshi o‘zgarishlar, yangiliklar ahamiyati juda kichrayib, ularga e’tiborimiz yo‘qoladi deb yozadi belaruslik mashhur psixolog N.Skibskaya. Salbiy yangilik va axborotlar haddan ortiq ko‘paysa, ijobiy o‘zgarishlarni yutib yuboradi va insonning atrof-muhit haqidagi ijobiy tasavvurini teskari tomonga o‘zgartirib yuborishi hech gap emas. Hayotning boshqa qirralarini ham qorong‘ilashtirib, noto‘g‘ri xulosalar chiqarishga undashi tabiiy, deya ta’kidlaydi psixolog. Bunday holatga tushib qolish esa ruhiy muvozanatni buzib yuboradi. Odam qo‘rquv va yomon tasavvur iskanjasiga tushib qoladi.

Tom ma’nodagi olimlar va mutaxassislarning bu mavzudagi xulosasini, fikrlarini tinglay turib, o‘zingiz ham ijtimoiy tarmoqlar oqimini kuzatish asnosida aholida ijobiy yangilikdan ko‘ra, salbiy voqea-hodisalar, mish-mish va g‘iybatlarga ko‘proq moyillik kuchayib ketmadimikan deb o‘ylab qolasiz. Yoki yon-atrofda yuz berayotgan ijobiy o‘zgarishlar, yangiliklar haqida esa bepisandlik, noo‘rin kinoya ohangida so‘zlashishni xush ko‘rishimizni ham bir-birimizga hurmat va ishonchni suiiste’mol qilish deb baholash mumkin.

## Tiniq tafakkurgina jamiyat va bunyodkorlik tayanchi bo‘la oladi

Ilmiy tibbiyotda miya deb yuritiladigan tafakkurimiz, o‘y-fikrlarimiz manbaining ishlash mexanizmi, imkoniyatlari shunchalar murakkabki, uni o‘rganish, tadqiq etish uchun maxsus ilmiy-tadqiqot institutlari mavjud. Ma’lumotlarga ko‘ra, inson miyasi 3 terabaytgacha hajmdagi ma’lumotlarni sig‘dira oladi. Bu ma’lumotning mavzuga aloqasi shundaki, ko‘rayotgan, o‘qiyotgan har qanday xabar, tasvir xotiramizga yozilaveradi. Shu tarzda ertangi qarashlarimiz, fikr-mulohazalarimiz, xatti-harakatlarimiz bora-bora qanday tus olishiga tom ma’noda katta ta’sir ko‘rsatadi. Muntazam salbiy o‘y-fikr, negativ ma’lumotlar girdobidan yuzaga keladigan doimiy xavotir va zo‘riqishdagi stress esa surunkali depressiyaga olib borishini anglash qiyin emas. Bu boradagi loqaydlik, e’tiborsizlik farzandlarimizning kelajakdagi ruhiyati, ma’naviyati, axloqi shakllanishiga salbiy poydevor bo‘ladi.

Zotan, ezgu o‘y-fikr, shunga munosib harakat birligigina jamiyat rivoji, ma’naviyatimiz, bunyodkorligimiz tirgagi bo‘lib qolaveradi. Tashqarida XXI asr, u axir “axborot asri” deya vaziyatni xaspo‘shlashga urinayotganlar ham bor. To‘g‘ri, lekin bu uning asiriga, vaziyatning qurboniga aylanib qolish kerak degani emas-da!

**Rustam BOYTO‘RA,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:
**Salim DONIYOROV**

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
**Nashr indeksi** — 236. **Buyurtma** — 446.
36811 nusxada bosildi.
**Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Bahor Xidirova
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘zA yakuni — 21:00

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05